

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Ijtimoiy tarmoqlardagi qaysi guruh yoki kanalga kirmaylik bir xil mavzu. Hamma o'qituvchilar yangi o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasi kechikayotganini haqida muhokama qilmoqda. Kimlardir buni soxta axborotlar bermogda, yana kimlardir turli gap-so'zlar tarqatmoqda. Bizning maktab rahbariyati tomonidan esa, dars rejalarini tayyorlab qo'yish buyurildi.

4-bet

Yodlatmaylik, o'rgataylik!

Yodlash orqali o'quvchi siz bergan ma'lumotni tezda aytib berishi mumkin, ammo yodlagan narsasining mohiyati, qayerdan kelib chiqayotganini bilmas ekan, u bilim o'rganilgan hisoblanmaydi va tez unutiladi.

6-bet

Mahsulotlar hamyonbop va sifatli bo'lsa

Har yildagidek yurtimiz bozorlarida, aholi gavjum hududlarda maktab bozorlari va yarmarkalar tashkil etildi.



16-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 14-avgust, chorshanba № 63 (9232)

Xalq ziyolilari gazetasi

“Hashar” niqobidagi majburiy mehnat



7-bet



Jurnalist yo'lga chiqdi

“Endi oromgohga bormayman, oyi”

Biz qalam ahli qiziqmiz-da, o'zimizning jonimiz Bog'rigandagina muammoni ko'ra boshlaymiz. Gap shundaki, yaqinda 9 yoshli qizim yozgi sog'lomlashtirish oromgohida dam olib qaytdi. Oromgohga birinchi marta borayotgani uchun biroz hayajonlandi, ota-onasidan uzoqda bo'lishini aytib o'ylandi. Qizimning kayfiyatini ko'tarish uchun internetdan oromgoh haqida ma'lumot va fotolavhalar topishga urindim.

“Fazogir” yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohi” degan qidiruv tugmasini bosishimiz bilan rang-barang suratlar chiqib keldi. Ular orasida bolalarni o'ziga maftun etuvchi lavhalar, tiniq suvli cho'milish havzalari,

ozoda mebelga ega yotoqxonalar tasviridan ko'nglimiz to'ldi. Qizalog'im xursand bo'lib, katta ishtiyoq bilan yo'l tadorigini ko'ra boshladi. Shundayam bolam uyni sog'inib qolishidan xavotirlanib, uning qo'liga yon-

daftarcha tutqazdim. “Oromgohda qanday dam olganing, kimlar bilan do'stlashganing, qaysi to'garaklarga qatnashganing haqida yozib yur. Seni nima xursand etsa yo xafa qilsa, shu voqealarni kundalikka yoz”, dedim. Ana shu daftarchadagi beg'ubor taassurotlar, bolalarcha tasvirlangan manzaralar Bo'stonliq tumanidagi To'raqo'rg'on qishlog'i tomon yetakladi. Yo'l-yo'lakay kundalikni varaqlab ketarkanman, ba'zi jumalalar xayolimni band etardi:

4-5-betlar

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

Dolzarb mavzu

Sifatli ta'lim — sifatli o'quv qurollari bilan

Zulfiya

Taniqli shoira, jurnalist, tarjimon, jamaat arbobi, O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya xamomaviy o'zbek shoirasining malikasi. U yoshlar va o'smirlar adabiyoti nashriyotida muharrir, O'zbekiston davlat nashriyotida bo'lim mudiri, «Saodat» jurnali bosh muharriri lavozimida ishlagan. «Hayot varaqalari», «She'r» va «Qizlar qo'shig'i», «Ushshar» kabi ko'plab shoiriy to'plamlar muallifi. Xalqaro Javohirlar Neru, «Nefar» mukofotlari laureati. Uning nomida Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh
Ii	Jj	Kk	Ll	Mm	Nn	Oo
Pp	Qq	Rr	Ss	Tt	Uu	Vv
Xx	Yy	Zz	O'o'	G'g'		
Sh sh	Ch ch	Ng ng				

O'qim daftri 12 versiy
“O'zbekistonda tashkil etilgan”

— Monkart, Avtobolt, Transformerlarning rasmi tushirilgan daftarlaringiz bormi, — sotuvchidan so'radi bir ayol. — O'g'lim shu multqahramonlarni juda yaxshi ko'radi-da. Sotuvchi qator terilgan daftarlar orasidan xaridor so'raganlarini shosha-pisha qidira ketdi. — Bizda barcha multfilmlarning qahramonlari aks etgan o'quv qurollari topiladi. Mana, rasm daftarlari, qalamdonlar, kreativ ruchkalar, hatto o'chirg'ich, qalamchiqargichlarning ham turli xillari bor. Xaridorni “ushlab qolish”ga urinayotgan savdogar so'ralgan daftarlarning faqat bittasi borligini, qolganlarining o'miga boshqalaridan tanlashi mumkinligini aytdi. Xullas, maqsadiga erishgan tadbirkor ayol o'zi maqtagan — “bolani qiziqtiradigan” o'quv qurollarini sotishga erishdi.

3-bet

O'ZBEKISTON PREZIDENTI OSIYO INFRATUZILMAVIY INVESTITSİYALAR BANKI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-avgust kuni Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki prezidenti Szin Lisyun boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonlarni samimiy qutlar ekan, O'zbekiston va OIIB o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Bank mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlarni faol qo'llab-quvvatlamogda. Bugungi kunda Buxoro viloyatida suv ta'minoti va suvovga tizimlarini rivojlantirish, avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish bo'yicha

umumiy qiymati 1,3 milliard dollardan ziyod bo'lgan ilk investitsiya loyihalarini tayyorlash ishlari yakuniga yetmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarda ijtimoiy, kommunal va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sanoat korxonalari va kichik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, mintaqaviy savdoni rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 1,6 milliard dollardan ortiq istiqbolli

loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Amaliy hamkorlikni kengaytirish va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining moliyaviy resurslarini jalb qilgan holda yangi dasturlarni ilgari surish masalalariga bag'ishlangan bugungi davra suhbatı muvaffaqiyatli bo'lgani alohida qayd etildi.

Samarali hamkorlik bo'yicha o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, sheriklik salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ikki tomonlama tadbirlar o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi.

OIIB prezidenti davlatimiz rahbariga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi hamda mamlakatimizda ustuvor loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish yo'lida aniq choralar ko'rish taklifini to'liq qo'llab-quvvatladi.

Szin Lisyun mamlakatimiz va butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror taraqqiyotini ta'minlash maqsadida bankning O'zbekiston bilan keng ko'lamli hamkorlikni mustahkamlash borasidagi intilishi qat'iy ekanini ta'kid-ladi.

O'ZA

"Sharq taronalari" XII xalqaro musiqa festivali oldidan

San'at xalqlarni birlashtiradi

Yana bir necha kundan so'ng Samarqandda "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivali boshlanadi.

1997-yildan buyon har ikki yilda an'anaviy o'tkazib kelinayotgan mazkur san'at bayrami o'tgan davr mobaynida dunyo miqyosidagi yirik madaniy tadbirga aylandi. Unda yer yuzining barcha qit'alaridan vakillar qatnashib, o'zlarining qadimiy va milliy musiqa madaniyatini namoyon etmoqda. Festival doirasida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyalar esa Sharq xalqlari musiqa madaniyati tarixi va an'alarini o'rganishga xizmat qilmoqda.

Bu yil o'n ikkinchi bor o'tkazilayotgan festival ham UNESCO shafeligida o'tkazilishi ma'lum qilingan.

Ayni paytda Samarqandda nufuzli san'at anjumaniga qizg'in hozirlik ko'rilmogda. Festivalga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish yuzasidan Samarqand viloyati hokimligining chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan. Unga ko'ra festival bilan bog'liq har bir jarayon e'tiborga olinib, 18 ta ishchi guruhi tashkil etildi. Ular faoliyatini muvofiqlashtirish va tayyorgarlik ishlarni keng ko'lamda, belgilangan vaqtda va sifatli bajarish bo'yicha shtab faoliyati yo'lga qo'yildi.

— Har bir ishchi guruhning vazifasi aniq belgilab berilgan, — deydi festivalga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha shtab rahbari Sh.Yo'ldoshev. — Jumladan, mehmonlarni kutib olish va kuzatish uchun tegishli sohalar vakillaridan iborat guruh, mehmonxonalarga joylashtirish bo'yicha alohida guruh, gid-tarjimonlar ajratish, transport xizmati ko'rsatish, viloyatdagi tarixiy-madaniy yodgorliklarga sayohatga olib chiqish, madaniy tadbirlar tashkil etish bo'yicha

va boshqa guruhlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Hozir Samarqand shahridagi mehmonxonalarda festival ishtirokchilari va mehmonlar uchun joylar belgilab olingan. Qaysi oshxonalarda ovqatlanirish bo'yicha ham aniq rejalar mavjud. Festival doirasida o'tkaziladigan "Sharq xalqlari an'anaviy musiqa san'atini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga Samarqand davlat universiteti boshchiligidagi hozirlik ko'rilmogda.

Tadbirlarda sayyoramizning turli hududlaridan, bir necha tillarda so'zlashuvchi mehmonlar qatnashishi hisobga olinib, Samarqand davlat chet tillar institutidan ingliz, rus, koreys, italyan, ispan, fransuz, nemis, xitoy, yapon va arab tillari bo'yicha 200 nafar malakali o'qituvchi hamda talaba gid-tarjimon sifatida tanlandi.

An'anaga ko'ra, festival ishtirokchilari tanlovdagi chiqishlaridan boshqa paytda Samarqand shahrida, shuningdek, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg'om, Jomboy va Samarqand tumanlaridagi istirohat bog'ları, musiqa va san'at maktablari, aholi dam olish maskanlarida konsert dasturlarini namoyish etadi. Bu madaniy dasturlar uchun o'ndan ortiq joy tanlanib, ushbu maskanlarni obodonlashtirish, qo'shimcha qulayliklar yaratish ishlari olib borilmoqda.

Festivalning bosh sahnasi — Registon maydonida esa O'zbekiston xalq artisti B.Yo'ldoshev boshchiligidagi "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish marosimining repetitsiyasi davom etmoqda.

G'ASANOV,
O'ZA muxbiri

Ta'lim

Darsliklarni takomillashtiraylik

Ta'lim mazmuni va sifati, avvalo, darsliklarga bog'liq. Tashqi ko'rinishi-yu, matnlarni o'quvchi yoshiga mos, rang-barang illyustratsiyalar bilan bekam-u ko'st, xatolarsiz va, eng asosiysi, zamon talablariga hamohang tarzda nashrga tayyorlash, tarjima qilish va chop etish muhim ahamiyatga ega.

Keyingi paytlarda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda darsliklarning mazmuni va undagi materiallarning saviyasiga taalluqli juda ko'p tanqidiy fikrlar bildirilmogda. Ota-onalar, o'qituvchi-yu o'quvchilar, keng jamoatchilik darsliklarga befarq emas. Ular ta'lim sifatini oshirish, darsliklar mazmunini yanada takomillashtirish bo'yicha ko'pgina takliflarni ham bildirishmogda. Jamoatchilikning bu kabi munosabatidan ko'rinib turibdiki, sohada hali juda ko'p amalga oshiriladigan ishlar va masalalar hamda yechimini kutayotgan dolzarb muammolar mavjud.

Ana shulardan kelib chiqib, Xalq ta'limi vazirligi va Respublika ta'lim markazi mu'tasaddi xodimlari o'quvchilarni sifatli darsliklar bilan ta'minlash borasida bir qator ishlarni amalga oshirmogda. Jumladan, "Darsliklarni birlashtirish" onlayn tanlovi e'lon qilinib, ishtirokchilarining takliflari keyingi yillar uchun chop etiladigan darsliklar mazmunini takomillashtirishda e'tiborga olinmogda.

Ma'lumot uchun: ushbu tanlovda o'zlarining asosli va foydali takliflari bilan faol ishtirok etganlarga tashkilot-

chilarning maxsus sovg'alari bor. Shu kunlarda ularni taqdirlash tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Yana bir asosiy masala maktablarda darsliklarning yetishmasligidir.

Maktablarda o'tkazilgan darsliklar ta'minoti tahlil qilinganida 4-, 5-sinfilar uchun chop etilgan darsliklar soni bilan 2019-2020-o'quv yilidagi o'quvchilar kontingenti o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi va ushbu sinflarda darsliklar yetishmasligi ma'lum bo'ldi. Mutaxassislarining so'zlariga ko'ra, mazkur muammolarning oldini olish, darsliklar yetishmaslik holatlarini bartaraf etish, o'quvchilarni darsliklar bilan to'liq ta'minlash maqsadida mazkur sinflar bo'yicha buyurtmalar shakllantirilib, 2018-2019-o'quv yili davomida 69 nomdagi 746 ming 202 nusxa darslik qo'shimcha chop etilib, maktablarga yetkazildi. Darsliklar yetishmasligining oldini olish maqsadida ota-onalarning fikrlarini inobatga olgan holda va o'qituvchilarning foydalanishini ta'minlash maqsadida maktab kutubxonasi fondi uchun xazina darsliklar to'plami kiritildi.


Bugungi kunda nashriyot va bosmaxonalarda 3 smena-

li ish tashkil etilgan bo'lib, ular tomonidan umumta'lim maktablari uchun 381 nomdagi 30,7 million nusxa, shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar maktab va maktab-internatlari uchun 52 nomda 40 ming nusxa darslik chop etildi va o'rnatilgan tartibda qabul qilib olindi. Umumta'lim maktablarining 1-, 2-, 4-, 5-, 6-, 7-sinfilari uchun belgilangan rejaga asosan darsliklar 100 foiz chop etilib, "O'quv ta'lim-ta'minot" DUK tomonidan joylarga yetkazilmogda. Matbaa korxonalarida chop etilgan jami darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarining 28,2 million nusxasi "O'quv ta'lim-ta'minot" DUK tomonidan olib chiqilib, 27,3 million nusxasi joylarga yetkazildi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maktab o'quvchilariga darsliklarni to'liq yetkazish, maktab kutubxonachilari faoliyati samaradorligini oshirish, hududiy xalq ta'limi boshqaruv idoralaridagi xodimlarning mas'ulligini oshirish maqsadida "Umumiy o'rta ta'lim maktablarini darsliklar bilan taminlash ishlarni takomillashtirish" mavzusida ikki kunlik seminar ham tashkil etildi. Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi Respublika ta'lim markazida o'tkazilgan seminarda xalq ta'limi vazirligi mutaxassislari, hududiy bo'linmalardagi mas'ul metodistlar va kutubxonachilar ishtirok etdi.

Mohigul QOSIMOVA,
O'ZA muxbiri

Sifatli ta'lim — o'quv qurollari bilan



(Davomi. Boshi 1-betda.)


Har yili yangi o'quv yili boshlanishi arafasida ota-onalarga qulaylik yaratish maqsadida turli hududlarda maktab yarmakalari tashkil etiladi. Maktab bozorlarida ko'zni quvontiradigan, bir-biridan ajoyib o'quv qurollari borki, ularni ko'rib beixtiyor eng chiroyli va jimjimadorlarini xarid qilgizib keldi. Zangota tumanida joylashgan "Ilm shu'las" mas'uliyati cheklangan jamiyatining savdo rastalari bolalar-u ota-onalar va boshqa xaridorlar bilan gavjum. Xalq orasida "Сольничный" deb nom chiqargan maktab bozori nafaqat Toshkent shahri, balki viloyatlarimizni ham o'quv qurollari bilan ta'minlaydi. Ushbu bozordagi narx-navo va mahsulotlarning sifati bilan qiziqib ko'rdik. Keltirilgan voqea ham ushbu bozordagi holatdan bir lavha edi.

Narxmi yoki sifat?

Maktab bozoriga kirib borishingiz bilanqoq turli tomondan kelayotgan chorlovlardan shoshib qolasiz. Ko'proq narsa olsangiz, arzon narxlarda hisob-kitob qilishni va'da berayotgan sotuvchilarning esa dardi bitta. Xullas, ujurji savdo markazida arzonroq mahsulot xarid qilaman desangiz — sifatsiz, sifati yaxshiroq'ini olaman desangiz — qimmat. Maktab anjomlarining ichida eng kerakli buyum bu sumka hisoblanadi. Turnaqator ilingan, jimjimador sumkalar ko'rgan ko'zni quvnatadi. Bularning barchasi maktab o'quvchilariga mo'ljallanganiga hatto shubha qilib qoladi kishi. Sotuvchi yigitning aytishicha, sumkalar 55 ming so'mdan boshlanib, 200 mingacha bo'lgan narxlarda sotilayotgan ekan. Mabodo, sifatsizini olaman desangiz, (masalan, Xitoyniki) narxi ham ko'tarilib boraverarkan.

Talab yuqori bo'lgan o'quv qurollaridan yana biri, shubhasiz, daftarlardir. Bozorni aylana turib, sifati bir-biridan tamoman farq qiladigan turli-tuman daftarlarga ko'zimiz tushdi. Mahsulotlarning turi ko'pligi va narxlarining turlichaligi har qanday xaridorni esankiratib qo'yishi turgan gap.

Masalan, birgina 12 varaqli daftarning 3-4 xilini uchratdik. Ma'lum bo'lishicha, ular orasida eng sifatsiz Rossiyaning "Arxangelskiy" zavodida va "Arena" firmasida ishlab chiqarilayotgan daftarlar hisoblanarkan. Ammo ularning har ikisi turli do'konlarda turlicha narxlarda



sotilmoqda. Kimdadir 500 so'm bo'lsa, yana kimdadir 450, boshqa birovda 400 so'm. Bir xil turdagi tovarning turfa narxdaligi xaridorni chalg'itib, sifatsizini farqloqlamay qolishiga sabab bo'lishi aniq. Qolgan ikki turdagi daftarlar arzon bo'lib, mahalliy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Ularning muqovasida turli allomalarining suratlarini va yashab o'tgan yillari ko'rsatilgan. Ammo foydalanishga yaroqlik darajasi ancha past, qog'ozining sifati talabga javob bermaydi. Narxlar ham turlicha: 350, 320, ko'proq olsangiz, 300 so'm bo'larkan. Ko'zni charchatadigan darajada sifatsiz bo'yoqlardan foydalanilgan. Bir tomoniga yozilsa, ruckhaning bo'yog'i varaqlarning ikkinchi tomonida ham qolib ketishi aniq. Qolaversa, chegarani bildiradigan qizil chiziqli ham har xilligi kishi ko'nglini xira qiladi.

Aslida "O'zstandart" agentligi tomonidan o'rnatilgan texnik reglament va standartga ko'ra, 12 varaqli daftarning vazni 70 – 80 gramli qog'ozdan tayyorlanishi kerak. Ammo bozordagi daftarlarning aksariyatining og'irligi 40 – 45 gramdan oshmaydi. Sifatsiz qog'oz va rang tarkibida turli kimyoviy moddalar bo'lib, u bola sog'lig'iga salbiy ta'sir etadi. Qolaversa, ko'zni charchatadi, husnirat xunuklashuviga olib keladi, hatto allergiya qo'zg'ashi ham amaliyotda kuzatilgan.

Eng achinarlisi, bu daftarlarning so'ngi muqovasida allomaning hayoti, ijodi haqida qisqacha ma'lumotlar bor. Ular ham juz'iy xatoliklardan xoli emas. Masalan, shoir Zulfira haqida ma'lumotda "Nilufar" mukofoti "Nelufar" tarzida yozilgan. Muqovasining o'rta qismida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi harflarning avval bosma, so'ng yozma shakllari tartib bilan berilgan. Harflarning yozma variantida katta "I" harfi katta "J" harfiga o'xshab qolgan. "Z" harfining yozma shaklida "beliga belbog'" qo'yilgani hayratimizni oshirdi. Eng ko'p kuzatilayotgan xatolardan biri — "O'" harfidagi apostrofining tutuq belgisi bilan almashtirilgani deyarli barcha mahalliy daftarlarda mavjud. "G" harfining yozma shaklida esa "o'miga yopilgan qo'shtimoq" (") belgisini ko'rishning mumkin.

Bu haqda sotuvchilarga aytib o'tirish befoyda. Chunki ular aybini ishlab chiqaruvchining gardaniga qo'yadi, qutuladi. Bu qaysi bosmaxona, qaysi MCHJ tomonidan ishlab chiqarilgan ekan deb,

muqovaning pastki qismiga qarasak, "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" degan yozuvdan boshqa narsani ko'rmadik. Bu holatda nima qilish, qanday yo'l tutish mumkin? Savolga tutilgan sotuvchi, bizni maydakashlikda ayblab, yoqmasa olmasligimiz mumkinligini qo'pol ohangda aytdi.

Ushbu daftarlarda ham, boshqa mahalliy MCHJ ishlab chiqargan daftarlarda ham hech qanday ishlab chiqarish manzili ko'rsatilmagan. Sotuvchilardan so'rasangiz, har doimgidek yelka qisishadi.

Yana gap ishlab chiqaruvchilarga borib taqalmoqda. Ular bunaqa narsalarga e'tibor berib o'tirmaydi. Ular faqat bozorbop tovarni sotib, foyda ko'rishni o'ylaydi. Bu holatda masalaga bitta yo'l bilan yechim topish mumkin. Agar pedagoglar ota-onalardan har tomonlama sifatli mahsulot sotib olishni qat'iy talab qilsa va bu majburiyatga aylansa, shunda ishlab chiqaruvchilar ham talabga mos tovar yaratishni o'ylaydi. Yo'qsa, bu kabi holatlarning oldini olib bo'lmaydi.

"Arzoni ko'p sotiladi"

Rastalarni aylanib, sotuvchilar bilan fikrlashib, aholi o'rtasida arzonroq mahsulotlarga talab borligini bildik.

Xaridorlarimiz doim so'rab keldigan va hamyonbop narxlardagi mahsulotlarni ko'proq "zakaz" qilamiz, — deydi ismini aytishni xohlamagan sotuvchi ayol. — Masalan, qalam-dond(penal)larning xilma-xillari bor, lekin hammasining narxi turlicha. Asosan, 3 mingdan boshlanib, 30 – 40 minggacha. Bozorda qidirsangiz, 170 – 200 ming so'mlik penallarni ham topasiz. Ammo ularning xaridori juda kam. Shuning uchun ham arzon va ketadigan tovarlarni ko'p olib kelamiz.

Kundalik daftarlarining narxi 1,5 ming so'mdan boshlanarkan. Bir kundalikdagi rasm e'tiborimizni tortdi. Unda birinchi prezidentimiz Islom Karimovning surati Mustaqillik maydonidagi "Ezgulik arkasi"ning ustiga tushirilgan. Kamiga muqovaning yarmida Amir Temurning otida turgan haykali ham aks etgan. Bu surat orqali qanday ma'no anglanadi, hayronmiz. Eng achinarlisi, Birinchi prezidentimizning otasining ismi — "Abdug'aniyevich"dagi "g" harfida ham o'sha eski xatoga yo'l qo'yilgan. Ushbu kundalikda ham na ishlab chiqaruvchining manzili, na boshqa ma'lumotlarni ko'rasiz. Taxlam-taxlam daftar olayotgan xaridorlarning bu masalalar xayoliga ham kelmayapti.

O'quv qurollari tabaqalanishga olib keladimi?

Maktab o'quvchilari o'rtasida turli masalalarda tengsizlik, tabaqalanish kabi holatlarni ko'p uchratganmiz, — deydi G'ijduvon tumanidagi 4-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi Zavarshoh Hamroyeva. — Maktab yoshidagi bolalarda solishtirish, qiyoslash kuchli bo'ladi. Uning kiyimi menikidan yaxshi, uning sumkasi bunikidan zo'r qabilidagi fikrlar bo'lishi ko'p kuzatilgan. O'quv qurollari masalasida ham xuddi shunday holatlar yuz beradi. Masalan, o'quvchilar orasida

qulfanadigan, muqovasi qattiq kundalik tutadiganlari, boshqa oddiy kundalik tutadigan tengdoshlaridan o'zini yuqori tutadi. Yoki oddiy rasm darslarida ishlatiladigan flomasterning ayrim ota-onalar eng qimmatini olib berishadi. Aslida darslarda flomasterga u qadar ehtiyoj yo'q. Zamonaviy sumkalarni aytmaydizmi, pastki qismida telefonni quvvatlaydigan moslama ham o'rnatilgan. Maktabimizda yuqori sinflarda telefon ishlatish taqiqlangan. Ammo shunaqa sumkalar olib, gerdaiyb yuradigan o'quvchilar ham topiladi. Bu kabi holatlarda o'quvchilar o'rtasida turli gap-so'z ko'payishi tabiiy. Muammoni to'g'ri hal qilish uchun o'qituvchilar avvalo ota-onalar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borishi kerak. Keyin o'quvchilarda ham o'quv qurollari zo'r bo'lgani bilan, bilim zo'r bo'lib qolmaydi, degan qarashni shakllantirish lozim. Yaqin kunlarda aynan shu masala bo'yicha maktabda ota-onalar majlisi o'tkazmoqchimiz. Joylarda maktab bozorlarining ochilganiga ko'p bo'lmadi. Har bir ota-onaga bu masalaga bee'tibor bo'lmasligi lozim. Zero, o'quv qurollari faqat va faqat o'quvchining bilim olishiga xizmat qilsin.

Darhaqiqat, o'quvchilar o'rtasida bu kabi masalalarda kelishmovchiliklar paydo bo'lishi sinfda muhit buzilishiga olib keladi. Bu borada mas'ullik ko'proq ota-onalar zimmasida bo'lishi kerak. Bekorga o'qituvchilar o'quvchining kiygan kiyimi, tutgan o'quv qurollariga qarab ota-onasining farzandi tarbiyasiga e'tiborini bilish mumkin deyishmagan.

O'quv qurollari tanlayotganda ko'proq sifati e'tibor beraman. Asosan, chet el mahsulotlarini xarid qilaman, — deydi toshkentlik Manzura Muxtorova. — Bozorga albatta farzandlarim bilan birga chiqib, o'zlari tanlagan o'quv qurollarini olamiz. To'g'ri, bolalarga ko'p ham erkinlik berish kerak emas. Lekin hech bo'limganda shu masalada tanlovni ularning o'zlariga qo'yib bersak, yomon bo'lmasdi. Bolalarim oddiyroq narsa tanlasak, o'rtoqlarim bunaqasidan ishlatadi deb turib olishadi. Ammo bolaning xayolini bo'ladigan, o'yinga o'rgatadigan o'quv qurollariga qarshiman. Bir gal kichik farzandimning partadoshi maktabga qichli ruchka olib kelibdi. O'g'lim bir marta yozib ko'rishga so'rasa, bemaabdi. Boshqa bolalar ham shu ruchkaga qiziqib qolibdi. Xullas, sinfda tortishuv, g'ala-g'ovur boshlanib ketgan. Galdagi ota-onalar majlisida o'qituvchimiz farzandlarimizga turli shaklli, e'tiborini tortadigan o'quv qurollari olib berishni taqiqladi. Haqiqatan ham, dars jarayonida o'quvchining xayoli chalg'iydi, diqqati bo'linadi. Lekin ustozning gaplari shu kuni unutildi shakilli, o'g'lim hayal o'tmay Asadda bunaqa penal bor, Sadridin mashinali ruchka olibdi, deb keldi. Albatta, bu masalada maktab ma'muriyati tomonidan qat'iy belgilangan me'yorlar bo'lishi kerak. Bunga barcha ota-onalar amal qilishga majbur bo'lsin. Mabodo qoidalar buziladigan bo'lsa, chora ko'rislagina, bu masalada yakdillikka erishish mumkin.

O'quv qurollarining maqsadi o'qish jarayonida o'quvchiga ko'mak berishdan iborat. Turli "innovation" va xato yozuvlarga ega mahsulotlar o'quvchini asosiy maqsaddan chalg'itadi. Buning uchun o'qituvchi va ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yish bilan birga maktab yarmakalari-da ham qat'iy nazorat o'rnatish kerak.

Niginabonu SHUKUROVA,
"Ma'rifat" muxbiri

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



✓ “Ma'rifat” gazetasining 59-sonida foydalanishga tavsiya etiladigan darsliklarning ro'yxati chiqdi. Unga birinchi marta 8-9-sinf texnologiya fani darsligi ham kiritilbdi. Ko'rib behad quvondim.

Hafiza RASHIDOVA

✓ Ijtimoiy tarmoqlardagi qaysi guruh yoki kanalga kirmaylik bir xil mavzu. Hamma o'qituvchilar yangi o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini kechikayotganini haqida muhokama qilmoqda. Kimlardir buni soxta axborotlar bermoqda, yana kimlardir turli gap-so'zlar tarqatmoqda. Bizning maktab rahbariyati tomonidan esa, dars rejalarini tayyorlab qo'yish buyurildi. Dastur aniq bo'lmasdan rejani tayyorlab qo'yish — mantiqsizlik. Vazirlik qachon bu masalaga oydinlik kiritadi?

PEDAGOG

✓ Mana maktab yarmakalari ham o'z faoliyatini boshladi. Joylardagi maktab bozorlarida narx-navolar bozorlardagidan aslo farq qilmaydi. Har doim kanselyariya do'konlarida sotiladigan o'quv qurollarining narxi “sezon” boshlanishi bilan qimmatlashadi. Ota-onalarga ham oson emas.

Guli ISMOILOVA

✓ Har bir ishda tartibga bolalikdan o'rganish kerak. Birinchi o'qituvchimiz har doim partamizning burchagida ruchka, qalam, chizg'ich, o'chirg'ich va ular qatorida qaynatilgan suv va ro'molcha turishini qat'iy talab qilardilar. Kimda birortasi bo'lmasa, ogohlantirish va jazo olar edi. Hatto talablar qatorida qizlarning oq lentasi ham tekshirilardi. Shu tufayli bu tartibni bir umr o'zimga singdirganman. Hozir o'quvchilarimdan ham shuni talab qilaman.

HILOLA

✓ Direktorlar qanday saylanadi, biz o'qituvchilar shunga tushunmaymiz. Kutilmaganida yozgi ta'tildan qaytganimizda yangi direktor tayinlangan bo'ladi. Hamma hayron bo'lib, so'zsiz ishini davom ettiraveradi. Aka direktorlikdan boshqa lavozimga o'tsa, o'nimga singil yoki opa keladi. Xullas, bizda maktab oilaviy merosga aylantirilmoqda. Bu nafaqat xalq ta'limi tizimi, balki jamiyatimizdagi eng katta illat hisoblanadi.

O'QITUVCHI

✓ Yil o'qituvchisi tanloviga ovoz yig'ish jarayonlarini kuzatdik. Ko'pchiligimiz ovoz so'ragan o'qituvchilarni aybladik. Aslida ayb kimda? Qandaydir tartib, qoida yoki boshqalar amaliyotga joriy etilishidan oldin uni ishlab chiquvchilar har jihatdan o'ylab ko'rishlari shart, menimcha. O'qituvchilarni ayblamaylik, ular ham ilojisizlikdan shunday qilgan!

Asrorbek BOTIROV

O'zbekistonlik olimlar Belarusda malaka oshirishdi

Belarus Milliy fanlar akademiyasida MFA ilmiy tashkilotlarida stajirovka o'tash dasturini yakunlagan yosh o'zbek olimlariga sertifikatlar topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Hujjatlarni Belarus MFA Rayosati raisi Vladimir Gusakov topshirdi.



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Belarus Milliy fanlar akademiyasi o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik doirasida amalga oshirilgan ushbu stajirovkalar yakunida Belarus MFA Rayosati raisi Vladimir Gusakov yosh olimlarni ruhlantirib, Belarus va O'zbekiston ilmiy tashkilotlari o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatilganini ta'kidladi.

Stajirovkalar Belarus Milliy fanlar akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo instituti, Biofizika va hujayra muhandisligi instituti, Energetika instituti, Falsafa instituti, Birlashgan informatika muammolari instituti, Materialshunoslik bo'yicha ilmiy-ishlab chiqarish markazi, Geofizik monitoring markazi, Belarus madaniyati, tili va adabiyoti tadqiqotlari markazida o'tkazildi. O'quv dasturi doirasida stajyorlar institutlar faoliyati, laboratoriya uskunali ishlab chiqarish va texnologiyalarning tashkil etilishi bilan tanishishdi, O'zbekiston — Belarus

I hududlararo forumida ishtirok etishdi.

Amaliyot yakunlariga ko'ra hamkorlikka doir beshta hujjat imzolandi: Belarus Geofizik monitoring markazi va O'zR FA Seysmologiya instituti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Memorandum; Belarus Milliy fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti hamda O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma; Belarus MFAning Energetika instituti va O'zbekiston Ilmiy-texnika markazi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim; O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi hamda Belarus MFAning Biofizika va hujayralar muhandisligi instituti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum.

O'zbekiston tashkilotlaridan Belarusga tashrif buyurgan yana 18 nafar tadqiqotchi 12-sentabrga qadar ikki oylik stajirovkasini davom ettiradi.

Nazokat AZIM

“Men ham hunarmand bo'laman”

“Hunarmand” uyushmasi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi Nurobod tumanining Oqsoy mahallasidagi 5-maktabgacha ta'lim muassasasida “Men ham hunarmand bo'laman” shiori ostida tadbir o'tkazdi.

Tadbirda O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Ahmad Umarov va yosh hunarmandlar Gulom Isayev, Firdavs Sattorov o'zlari tayyorlagan badiiy ijod namunalari, hunarmandchilik mahsulotlari, milliy qo'g'irchoqlarni bolajonlarga taqdim etdi.

Uyushmamiz yoshlarda hunar o'rganish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida olis qishloqlarda mana shu loyihani amalga oshirmoqda, — deydi “Hunarmand” uyushmasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Umid Hakimov. — Shuning uchun ilk bor tashkil etilgan mazkur tadbirni viloyat markazidan olis, tog'lar bag'rida joylashgan Oqsoy mahallasidan boshladik. Maqsadimiz xalq amaliy san'atining qadimiy an'alarini o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish, ularda hunarmandchilikka bo'lgan qiziqishni yanada oshirishdir.

Tadbirda 5-maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanayotgan 50 nafar bolaga hunarmandlar tomonidan tayyorlangan sovg'alar berildi.

A.YO'LDOSEV,
O'ZA muxbiri

(Davomi Boshi 1-betda)

“Hozir soat 19:00. Men juda-juda xursandman. Chunki meni oilam ko'rganiga keldi. To'g'ri, kunduzi ko'p yig'ladim. Keyin oyimni ko'rib rosssa quvondim. 23-iyun, yakshanba”.

Bolalar oromgohga joylashgach, ikki kun o'tib xabar olgani bordik. Darvoza tagida xo'jalik ishlari mudiri va posbon yigitlardan iborat to'rt-besh kishi bizni kutib olib, bolalarni chaqirib berishini aytishdi. Men farzandimning do'stlarini, yotoqxonasini ko'rish istagimni bildirdim. Lekin bu yerda tartib-intizom juda qat'iy nazorat qilinishi, hech kim ichkariga kira olmasligini aytishdi. Shu darajada qat'iy qo'riqlangan hududda bolalar yaxshi dam olayotganiga ishonib izimga qaytdim. Eng muhimi, bahavo tabiat bag'rida hordiq chiqarayotgan o'g'il-qizlar salomatligi mustahkamlanadi.

Intizom qat'iy, biroq...

“Bugungi kunim ham juda yaxshi o'tdi. Biser to'qish mashg'ulotiga bordim. Keyin sahnaga chiqdim. O'yin-kulg'u, shovqin ko'tarilgach, guruhimizdagi opalar bilan xonamizga qaytdik. Chunki biz “месний”lardan qo'rqib qoldik. Ular bo'yi uzun qizlar bilan tansaga tushadi.

Kechqurun esa uyqusirab, boshimni tumbaga urvoldim. Ana shu payt boshim shishib ketdi, og'ridi. Opam ham sirpanib yiqildi, lekin uning boshi og'rimadi. 24-iyun dushanba”.

Bu “местний” degan gap qayoqdan chiqdi, deya hayratlandim. Birgina qizimning gapi bilan xulosa chiqarmaslik uchun boshqa hamrohlardan ham bu haqda so'radim. Oromgohning ikkinchi mavsumida dam olgan sergellik Zarina ham “har kuni kechki payt bo'ladigan diskotekada baland-past bo'yli bolalar qatnashishini, bir kuni ular hovlining yon tarafidagi ochiq maydondan kirib kelganini, ulardan qo'rqishini” so'zlab berdi.

Qizaloqlarning yuragini olib qo'yan sho'x-shaddod bolalar kiradigan joy qayerda ekanligiga qiziqdik. Hatto otanalarning ham kirishi taqiqlangan joyda begona o'smir yigitlar yurishiga ajablanib, bu holni o'z ko'zimiz bilan ko'rishga urindik. Shu yerga kelganimizda peshtoqiqa “Fazogir” bolalar sog'lomlashtirish yozgi oromgohi” degan yozuvli darvoza oldida ikki nafar qo'riqchi yigitni ko'rib, “hartugul bu gal kamroq ekan, lekin qanday qilib ichkariga kirsam” degan o'йда salomlashdim. Ulardan birining “Siz ham SESdanmisiz, marhamat to'g'riga yurasiz va chapga qayrilasiz. Sheriklaringiz shu yerda oshxonada o'tirishibdi” degani menga juda qo'l keldi. Shu bahonada oromgohning atrofini ko'zdan kechirdim. Haqiqatan ham, bir tomondagi adirli yerlar chegarasiz qishloq hududi bilan tutashgani ko'zga tashlanardi. Hech bir to'siq yo'qligi sabab begona bolalar ovul oralab kelishiga ishonsa bo'ladi.

Oromgoh hovlisidagi jarayon bir zunda xayolimni chulg'ab oldi. Har tarafda bolajonlarning qiyqirg'i va shod kayfiyati sezilib turardi. Bir yonda o'g'il-qizlar to'garak mashg'uloti bilan band bo'lsa, bir tomonda tarbiyachining hikoyasini tinglayotgan bolalarni uchratdik. Yana bir guruh kichikintoylar shashka o'ynashardi. Markaziy yo'lakdan ketarkanmiz, e'tiborga sazovor ozodalik barobarida chekka ariq ichida to'planib qolgan chiqindilar-u bakkashkalar kishi ta'bini xira qiladi. Yo'l chetidagi kichik favvoralarining bo'yoqlari biroz kirlangan bo'lsa-da, undan tomchilab turgan suvni bolajonlar ichayotgani

Bu ajoyib kun tartibi bola organizmida kirli suvning 24 soat davomida saqlanishini "ta'minlaydi".

"Endi oromgohga bormayman, o'yi"

menga yoqmadi. Shunda shiringina bola qo'lini ko'ksiga qo'yib, biz bilan so'rashdi:

— Bizga uydagilar katta idishlarda suv berib yuborishgandi, ammo tugab qoldi. Oshxonadaya qaynagan suv bor, uzoqroqda joylashgani uchun ko'p bolalar favvoralaridan suv ichishadi. Bu yerda muammo deyarli yo'q, yaxshi dam o'layman. Chunki o'quv yili yakunida o'qish-organishdan charchagandim. Tarbiyachi opalar ham yaxshi qarashadi, ular juda mehribon. Faqatgina hojatxonalar iflosligi yoqmadi, badbo'y hidi tufayli borgim kelmaydi, — deydi Mirzo Ulug'bek tumanidagi 279-maktabning 7-sinf o'quvchisi Doniyor.

Haqiqatan bu holatni o'z ko'zimiz bilan ko'rgach, bu maskanda ozodalik ishlariga mas'ul xodimlar bor-yo'qligiga qiziqdik. Shunday katta maskanda farosh ishlamasligi mumkin ham emas-da. Biroq ularning qachon kelib-ketishini ko'pchilik bilmaydi. Demak, tozalash ishlari har kuni ma'lum tartib asosida amalga oshirilmaydi. Yotoqxonalar esa bolalar tomonidan supuri-b-sidiriladi, bu esa ularni mustaqil mehnatga o'rgatishga turtki bo'ladi va farosh opalarning ishi yengillashadi. Darvoqe, bu xonalarni o'g'il-qizlar chindex qilib qo'yishgan-u, eski linoleumning tagidan ko'tariladigan chang ularning ishini ko'paytirarkan. Boz ustiga bunday ta'mirtalab pol va devorlarning ahvoli bola kayfiyatiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Oftob tig'ida isigan suv zararli...mi?

"Bugun ahvolim yaxshi bo'lmadi. Chunki ertalabdan tushgacha Shahzoda opamning yonida bo'la olmadim. Uning istimasi ko'tarilib, tibbiyot xonasida yotdi. Keyin esa yaxshi bo'lib qoldi... 25-iyun, seshanba".

Ha, dam olish maskanida asosiy talablardan biri sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishdir. Bu yerga kimdir qo'li yoki oyog'i timalib kirib kelsa, boshqasining boshi og'rib qoladi. Malakali shifokor va hamshiralarning boriga shukr, deymiz. Shifokorga murojaat qilishdan avval yuvinish vositalarining sanitariya-gigiyena me'yorlariga mos kelishini ko'zdan kechirdik. Har bir qo'l yuvish moslamasiga mayda quvurchalar o'rnatilgan bo'lib, ularga quyosh nurida isiydigan boshqa katta quvur orqali suv tusharkan. Har kuni tongda va kechqurun bu suv tog'ning salqin havosida muzdek bo'ladi, boshqa payt oftob tig'ida iliydi. Shunga qaramay bolalar yuz-qo'llarini yuvishadi. Ushbu oromgohda 7—13 yoshli bolalar dam olishini inobatga olsak, kichikintoylarning tishi, qulog'i va burni shamollab qolishi mumkin. Xuddi shu usulda sovib-isiydigan yirik quvur orqali basseyn, umumiy yuvinish xonasi va hammomdan muntazam o'g'il-qizlar foydalanishadi. Bu suvning bola salomatligiga foyda-zarari haqida oromgoh hamshirasi Ma'luma Usmonovadan tayinli javob ololmadik.

Ro'paramda ust-boshi ho'l bo'lib qaytgan qizlarni ko'rib, hovuz shu tarafda eka-



nini fahmladim. Bu cho'milish havzasi ancha loyqa bo'lishiga qaramay, ko'pgina o'g'il-qiz cho'milishyapti. Hovuzdan chiqqanlar chekkadagi bir kishilik yuvinish xonasiga kirmay ham sochiqlarini yelkasiga tashlab xonalari tomon yugurishdi. Boisi, 5-guruh tarbiyachisi Shoira Abdumalikova aytganidek, hovuzga tushgan bolalar hammomga borolmaydi, ularga navbat ertasi kuni keladi. Bugun hammomga tushgan bolalar ertaga basseynga kelishadi. Bu "ajoyib" kun tartibi bola organizmida kirli suvning 24 soat davomida saqlanishini "ta'minlaydi". Yuvinish uchun suv saqlanadigan kattagina temir moslama shu qadar zang bosib ketganki, hammomning tomiga o'rnatilganidan buyon ta'mirlanmagan ko'rinib turibdi. Undagi suv ham xuddi qo'l yuvish moslamasidagidek quyosh nurida o'zi isib, o'zi soviydi. O'ylab qolgan kishi, shuncha katta hududni egallagan, har yili minglab o'quvchilar yozgi ta'tilni o'tkazadigan mashhur oromgohda sanitariya-gigiyena me'yorlariga mos yuvinish xonasi hamda toza suv moslamalaridan iborat hammom qurish mushkul ish bo'lsa?!

Mutaxassislar katta-yu kichik yoshdagilar hovuzda cho'milgandan so'ng toza va iliq suvda ko'pikli vositalar yordamida yuvinishi shart ekanini ta'kidlashadi. Ayniqsa, bolalarning organizmi juda nozik bo'ladi. Suv tabiiy manba bo'lsa-da, quyosh nurida soatlab turgach, salomatlik uchun zararli hisoblanadi. Chunki bir martadan ortiq qaynatilgan yoki atayin oftob tig'ida isitilgan suv tashqi muhit ta'siriga qarab o'zidan dioksin (saratonni keltirib chiqaruvchi zaharli modda) ajratadi.

Shavkatjon HAYDAROV, Respublika davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi Bolalar va o'smirlar gigiyenasi bo'linmasi sanitariya vrachi:

— Oromgohlardagi basseynlar ichki tomondan kafel bilan qoplangan bo'lishi, suvni tozalash filtri va zararsizlantiruvchi vositalarga ega bo'lishi shart. Basseyn suvi unda cho'miladigan bola soniga qarab turli muddatda (kuniga bir marta) almashirilishi kerak. Cho'miluvchilarga kiyim almashtirish uchun xona va dushxona bo'lishi lozim. Basseyndagi suv harorati yetarli darajada bo'lganda bolalarning basseyn suvida cho'milishi tarbiyachi nazora-

ti ostida olib boriladi. Bolalar suvga tushishdan avval dushdagi suvda organizmni moslashtirib, keyin cho'milishlari lozim. Basseyn suvini mikroelementlar ta'siridan himoyalash maqsadida xlor eritmasi solinadi. Agar bolalar basseynidan keyin ham toza suvda cho'milishmasa, turli allergik reaksiyalar sodir bo'lishi mumkin.

Hojatxonalar oromgohda dam oluvchi bolalar soniga mos, oromgoh faoliyat boshlashidan avval kapital ta'mirdan chiqarilgan, bolalarning qo'lini yuvishi uchun suv bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Kleyonkali va boshqa qoplar, metall va yog'och yashik, bidon va flyagalar ishlatilgandan keyin 2% li kalsiy soda eritmasi bilan yuviladi (1 litr suvda 20 g zararsizlantiruvchi vositalar eritiladi), qaynatilgan suvda bug'lanadi, quritiladi va ifloslanmaydigan joylarda saqlanadi. Ularga ishlov berish mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan maxsus xonalarda o'tkaziladi. Oftob nurida isiydigan suvning zararlilik darajasi suv saqlanadigan idishga bog'liq, bu uskunangizlamaydigan, erimaydigan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Vannalarga issiq va sovuq suv ulangan bo'lishi kerak. Issiq suvning harorati 65°C dan past bo'lmashligi va davlat standartidagi talablariga javob berishi lozim. Har bir bola hisobiga ikkita idishlar komplekti to'g'ri kelishi zarur. Ovqatlanish vaqtida har bir bolaga bitta idish komplekti ishlatiladi. Ovqatlanish vaqtida idishlarni yuvish va yuvilgan idishda boshqa bolalarga taom berish mumkin emas. Yuvish va zararsizlantirish uchun vositalar alohida shamollatiladigan, quvur xonalarda unga maxsus yorliq yopishtirilgan idishlarda saqlanadi. Tayyorlangan eritmalar qoraytirilgan shisha idishlarda, og'zi mahkamlangan holatda nam va yorug'likdan himoyalangan tartibda 5 kundan oshmagan muddatda saqlanadi. Zararsizlantiruvchi vositalarni oziq-ovqat bo'linmasida saqlash mumkin emas.

Mashhur qizil "futbolka"

"Bizga bayramda kiyish uchun matosi eskirgan qizil futbolka tartatishdi. To'g'risini aytсам, sal boshqacha hid kelgani uchun bu kiyimni kiygim kelmadi. Baribir kayfiyatim tushmadi, chunki ertaga uyimizga ketamiz. Lekin Laziza(ismi o'zgartiril-

gan) xursand bo'lmayapti. U yig'lab o'tirdi. Keyin meni yoniga chaqirib, telefonini berdi. Temurga (ismi o'zgartirilgan) olib bor, ichida hamma gapim yozilgan, rasmlarim, raqamlarim bor, dedi. Men endi oyim urishadi, demoqchi edim, Madina opam "qo'y buni aralashtirma, hali kichkina. Ota-onasi militsiyaga berversa-chi seni" dedi. Oromgohga kelgan kumimiz Laziza-ga o'sha yigit telefon sovg'a qilibdimi-yey, endi ketayotgani uchun xayrlashibdi. 1-iyul, dushanba".

Oromgohda o'tkaziladigan bayramona marosim uchun bolalarga bir xil rangdagi kiyimlar kiydirish urfga aylangan. Shuning uchun bolalarga o'ldhami mos kelgan futbol-kalar avval kiyilgan bo'lishiga qaramay beriladi. Birinchi mavsumda begona bola kiygan libosni keyingi mavsumda boshqalarning egniga ilish gigiyenaga ham to'g'ri kelmaydi-ku! Oromgohda o'tkaziladigan tadbirlarning qizg'in va fayzli o'tishini istagan mas'ullar har bir bola uchun alohida kiyim ajratilishiga imkon topishmasa, tadbirga hamma o'zi istagan shaxsiy libosida qatnashaversin. Kundalikda yozilgan yana bir masala shuki, dam oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan guruhlariga ajratilishida ham befarqlikka yo'l qo'yilgan. Shunday bo'lganda 9 yashar qizaloq 12-13 yoshli qisqa muddatda "ishq dardi"ga mubtalo bo'lgan qizlar bilan bir xonada istiqomat qilishmasdi. Bir qarashda bu arziyas gapdek tuyulishi mumkin. Biroq bu loqaydlik o'z uyida oppoq qanddek araylangan bolalar, ayniqsa qizlar o'zidan 3-4 yosh kattalarning axloqiy me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan munosabatlariga guvoh bo'lishiga sharoit tug'dirish bilan barobar. Farzand tarbiyasi va ma'naviy kamoloti o'ta nozik va muhim masaladir.

Biz yuqorida tilga olgan muammolar yuzasidan oromgoh direktori Lyudmila Protzenko qisqagina javob berdi. U birinchi mavsumda havo salqin bo'lgani va bolalar hovuzga tushmagani uchun suvi almashirilmaganligi, uch-to'rt kundan keyin suvni yangilash niyati borligini bildirdi, xolos. Quvurlarda suv tarqalishidan avval xlor qo'shilishini aytishgan, ammo tushgacha sovuq bo'lsa-da, keyin quyoshda iligandan keyin yuvinishadi.

Albatta, maskandagi bahavo tabiat, tiniqlik, kun tartibi, qiziqarliq aqiliy va jismoniy mashg'ulotlar, tarbiyachilarning xushmuomalasidan ota-onalar doimo mamnun. Bu yerdagi ayrim kamchiliklar tuzatilsa, bu mamnuniyat yanada ortardi. Zero, har birimiz bolalarning yozda mazmunli hordiq chiqarib, bolalik xotiralari go'zal taassurotlarga to'lishini, salomatligiga sira ziyon yetmasligini istaymiz. Bolalarning tabiat qo'ynida dam olib, mazali taomlar iste'mol qilishganidan har qancha quvonmaylik, sanitariya-gigiyena hamda ma'naviy-tarbiyaviy jihatlariga yanada e'tibor qaratilsa, tur ustiga tur bo'lardi. Vaholanki, "Bolalar sog'olmashtirish oromgohlari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, oromgohning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, bolalarni milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari shakllantirilishi, sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablariga to'liq mos keladigan sharoit yaratish belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, har yili yozgi mavsumning o'zida ming nafarga yaqin o'g'il-qiz hordiq chiqaradigan "Fazogir" ota-onalar bolalarini xotirjam, ishonch bilan jo'natadigan maskan bo'lishini xohlaymiz.

Shoira BOYMURODOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Sinab ko'ring

Yodlatmaylik, o'rgataylik!

Hozir bolalarni kitob o'qish, ilm olishdan chalg'itadigan vositalar ko'p. Shu bois o'qituvchilardan har bir mavzuni yangicha yondashuv asosida, o'quvchining diqqat-e'tiborini jalb qiladigan yo'l bilan tushuntirish talab etiladi.

Faoliyatim davomida juda ko'p saboq oldim. Muammoli vaziyatlardan chiqib ketish mahoratini o'zlashtirdim. Bir safar boshlang'ich sinf o'qituvchisi betob bo'lgani sababli uning sinfga o'rindoshlik asosida dars o'ta boshladim. 4-sinf o'quvchilarining aksariyati karra jadvalini bilmasligini ko'rib hayratlandim. Yuqori sinf matematika fani o'qituvchilarining "boshlang'ichdan matematikadagi tayanch bilimlarni yaxshi o'zlashtirmay chiqishyapti", degan iddaolari rostligini angladim. Keyin bu muammoga chora izlay boshladim. O'quvchi karra jadvalini bilmadimi, matematikadan tashqari boshqa ko'plab fanlarni, jumladan, fizika, astronomiya, biologiya, kimyo, chizmachilikni o'zlashtirishda ham to'siqqa uchraydi. O'quvchining karra jadvalini bilmasligiga aksariyat o'qituvchilar uni yod olmaganini sabab qilib ko'rsatishadi. Shuni unutmasligimiz kerakki, yodlash orqali o'quvchi siz bergan ma'lumotni tezda aytib berishi mumkin, ammo yodlagan narsasining mohiyati, qayerdan kelib chiqayotganini bilmas ekan, u bilim o'rganilgan hisoblanmaydi va tez unutiladi.

Shundan so'ng, o'quvchilarga jadvalni qisqa muddatda o'rgatish usuli haqida bosh qotira boshladim va qo'llagan metodim samara berdi.

Qo'shish orqali karra jadvalini o'rganish

Karra jadvalini yodlash orqali emas, qo'shish orqali o'rgatish yaxshi samara beradi. Buning uchun har bir amalning yonida qo'shish orqali uning kelib chiqishini ko'rsatib o'tish kerak.

Masalan:

$2 \times 2 = 4$	$2 + 2 = 4$	$3 \times 2 = 6$	$3 + 3 = 6$
$2 \times 3 = 6$	$2 + 4 = 6$	$3 \times 3 = 9$	$3 + 6 = 9$
$2 \times 4 = 8$	$2 + 6 = 8$	$3 \times 4 = 12$	$3 + 9 = 12$
$2 \times 5 = 10$	$2 + 8 = 10$	$3 \times 5 = 15$	$3 + 12 = 15$
$2 \times 6 = 12$	$2 + 10 = 12$	$3 \times 6 = 18$	$3 + 15 = 18$
$2 \times 7 = 14$	$2 + 12 = 14$	$3 \times 7 = 21$	$3 + 18 = 21$
$2 \times 8 = 16$	$2 + 14 = 16$	$3 \times 8 = 24$	$3 + 21 = 24$
$2 \times 9 = 18$	$2 + 16 = 18$	$3 \times 9 = 27$	$3 + 24 = 27$

Bu usulda o'quvchi karra jadvalini qiynalmay o'rganadi.

Daftarlari orqasida beriladigan "Karra jadvali"ga ham shunday o'zgartirish kiritishni taklif qilaman. Shuningdek, daftari orqasidagi "Karra jadvalini yodlang" jumlasining o'rniga "Karra jadvalini qo'shish orqali o'rganing" deb yozib qo'yish kerak. Agar daftari orqasiga jadvaldagi hamma amal qo'shish usulida sig'masa, 2 va 7 karra jadvalining o'zini namuna sifatida chop etish kifoya qiladi.



Qolganini esa o'quvchi shu namunaga tayangan holda mustaqil ishlab chiqqani ma'qul.

Bu usulni o'quvchilarga tez va puxta o'rgatish uchun 2- va 3-sinflar matematika darsligiga karrani qo'shib o'rganishga doir 8 tadan misol kiritish kerak.

O'quvchilar bu misollarni yechish orqali karra jadvalini o'rganadi. Agar bu usulda o'rganishga dars soati yetmasa, 2- va 3-sinf o'quvchilari karra jadvali uchun alohida daftar tutishlari kerak. O'qituvchi ular bilan darsdan keyin shug'ullanib, shu usulda o'rgatishi zarur. O'zlashtirish darajasi past bo'lgan o'quvchilar karra jadvalini uch bosqichda o'rganadi.

topilib yoziladi.

$4 + 4 = 8$	$4 +$	$5 \ 6 \ 7 \ 8$	$= 8$
$4 + 8 = 12$	$8 +$	$9 \ 10 \ 11 \ 12$	$= 12$
$4 + 12 = 16$	$12 +$	$13 \ 14 \ 15 \ 16$	$= 16$
		10	25
		15	30
		20	35

3. Javoblarni yozish orqali o'rganish. Masalan, o'quvchi og'zaki yoki barmoqlar orqali hisoblab karra jadvali javoblarini topadi. Bunda faqat javoblar yoziladi.

10	25
15	30
20	35

1. Chiziqlarni sanab qo'shish usuli:

Masalan,	$4 \ 5 \ 6$
$3 + 3 = 6$	$3 + 1 \ 1 \ 1 = 6$
	$7 \ 8 \ 9$
$3 + 6 = 9$	$6 + 1 \ 1 \ 1 = 9$
	$10 \ 11 \ 12$
$3 + 9 = 12$	$9 + 1 \ 1 \ 1 = 12$

2. Barmoqlarni sanash orqali qo'shish usuli:

Masalan, dastlab misol yoziladi. So'ngra barmoqlarni sanash orqali javobi

Karra jadvalini bosqichli o'rganish usuli doskada yoki daftarda bajariladi. Xotirasi past o'quvchilarga har doim jadvalni takrorlatib turish kerak.

Hozir maktabimizda ko'plab boshlang'ich sinf va matematika fani o'qituvchilari bu usulni qo'llab ko'rishdi va yaxshi natija berayotganini ta'kidlab kelishmoqda. Siz ham sinab ko'ring, aziz hamkasb.

Abduraim ORTIQOV,
Chinoz tumanidagi
25-maktab o'qituvchisi

Maxsus ta'lim muassasalarida

Maqsad sari o'zgacha yondashuv kerak

Har bir insonda o'ziga xoslik, betakrorlik bo'lishi tabiiy. Bu o'ziga xoslik insonning yashab, tarbiyalanayotgan, faoliyat yuritayotgan muhitiga bog'liq. Insondagi chuqur, keng o'zgarishlar bolalik davrida yuz beradi. Bu davrda shaxsning jismoniy, ma'naviy sifatleri samarali ravishda rivojlanadi. Imkoniyati cheklangan bola — rivojlanishi cheklangan bola emas, aksincha o'zgacha rivojlanayotgan boladir. Bunday bolalarga ulardagi betakrorlik, o'ziga xoslik jihatlarni hisobga olgan holda yondashish kerak. Ularning tiklanishi va rivojlantirish uchun biz o'zlaridagi qobiliyatlar, imkoniyat va malakalarga tayanishimiz lozim.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va ulardagi u yoki bu nuqsonni korektsiyalashning

samaradorligi asosan ikki omilga bog'liq: tashqi omil (ota-onaning roli, oilaviy muhit, erta medikamentoz yondashish, o'qituvchi-defektologning mahorati, ta'lim-tarbiyani tashkil qilish, ta'lim-tarbiya usullarining maqsadga qaratilganligi) bo'lsa, ichki omil — bolaning yosh, individual va xarakter xususiyatlaridir.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning rivojlanishidagi shu o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda, ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarda ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilgan. Xususan, Shayxontohur tumanidagi 37-ixtisoslashtirilgan maktabda imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda, defektolog-o'qituvchilar, psixonevrolog, psixolog, logoped kabi malakali mutaxassislar

faoliyat yuritishmoqda. Shubhasizki, darslarimiz ommaviy maktablardan birmuncha farq qiladi, lekin maqsadimiz bir — shunchaki o'zgacha yondashuv — ta'lim-tarbiya berish, nuqsonni korektsiyalash va o'quvchilarni hayotga tayyorlashdir. Maktabimiz 10 yillik bo'lib, ayni vaqtda 258 nafar o'quvchi tahsil oladi. O'quvchilar yordamchi maktabga 7 yoshdan, psixonevrolog yo'llanmasi asosida, tibbiy, pedagogik-psixologik komissiya xulosasiga asosan qabul qilinadi. Kompleks yondashuvlar natijasida hozirda o'nlab o'quvchilarning ommaviy maktablarda tahsil olishmoqda. Bu natijalar nafaqat bizning, balki jonkuyar ota-onalarning ham mashaqqatli va samarali mehnatlari natijasidir. Chunki ta'lim-tarbiyada nafaqat mutaxassislar, balki ota-onalar-

ning ham roli beqiyos. Afsuski, ba'zi ota-onalar farzandidagi nuqsonga, ularning tarbiyasiga umuman e'tibor bo'ladilar. Bu esa nafaqat bolaning hayotida, shuningdek, jamiyat hayotida ham salbiy iz qoldirmay qo'ymaydi. Shu o'rinda mashhur fransuz shifokori va oligofrenopedagogi E.Segening og'ir nuqsonli bolalarning ota-onalariga tavsiyalarini eslasak o'rinni: "Agar u (nuqsonli bola) ishqoqmas, qobiliyatsiz, e'tiborsiz bo'lsa, unda bir so'z bilan aytganda, siz yoqtiradigan birorta ijobiy fazilat bo'lmasa, shunda ham rohim tushmang. Agar u har doim yotsa, turg'azib qo'ying, agar u o'zi yemasa, ovqatlantirish vaqtida barmoqlarini ushlang, agar u umuman harakatlanmasa, uning muskul-larini harakatlantiring, agar u qaramasa, gapirma, unga siz

gapiring, ko'zlariga qarang: uni ishlayotgan kishilardak ovqatlantiring va birga ishlashga majbur qiling; uning irodasi, tafakkuri bo'ling. Agar siz 3-4 yil ichida unda biror qobiliyat, nutq, tafakkur elementlarini shakllantira olmagan bo'lsangiz ham, sizning mehnatlaringiz zoye ketmagan bo'ladi. U katta muvaffaqiyatlarga erishmagan bo'lsa ham, har holda u sog'lomroq, kuchliroq, quloq soladigan, axloqliroq bo'ladi. Bu kammi? Bu sizning mehnat mahsuligiz emasmi? Nima qo'lingizdan kelsa, hammasini qildingiz. Bu hamma narsa emasmi?"

Albatta, farzandlarimizga o'z vaqtida qaratilgan e'tibor samara berishi, shubhasiz. Zero, farzandimizga berilgan e'tibor, kelajakka qaratilgan e'tibordir!

Dilbar HASANOVA,
Shayxontohur tumanidagi
37-yordamchi maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mutaxassis minbari

"Hashar" niqobidagi majburiy mehnat

Mamlakatimizda o'qituvchi va murabbiylarning turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat huquqlarini ta'minlash, jamiyatdagi mavqeyini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, pedagoglarni xizmat vazifalariga kirmaydigan qo'shimcha ishlar bilan band qilish, majburiy mehnatga jalb etish holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasi hamda Mehnat kodeksining 7-moddasi, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga ko'ra, majburiy mehnat taqiqlanadi. Ammo oxirgi paytlarda ayrim ish beruvchilar va rahbarlarning bu masalaga mas'uliyat bilan qaramayotgani oqibatida "hashar" niqobi ostida ayrim tashkilotlarda xodimlarni majburiy mehnatga jalb qilish holatlari uchramoqda. Aslida esa hashar umuminsoniy qadriyat bo'lib, ixtiyoriy ravishda fuqarolar birlashib, muhtoj insonga yordam qo'lini cho'zishi, mushkulini oson qilishi demakdir.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 349-sonli qarorining 2-bandiga ko'ra, **davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan hasharlar quyidagi shartlarga qat'iy rioya etilgan holda faqat ixtiyoriy tarzda tashkil etiladi va o'tkaziladi: umum-xalq hasharini o'tkazish to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjati yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori mavjud bo'lganda; hasharlar unda ishtirok etadigan shaxslar mehnat qiladigan tegishli tashkilot hududida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik normalariga qat'iy rioya etilgan holda o'tkaziladi; hasharlar doirasida barcha boshqa turdagi jamoat ishlari, shu jumladan qurilish-ta'mirlash va qishloq xo'jaligi ishlariga majburiy jalb etishga qat'iy yo'l qo'yilmagan holda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, ish o'rinlarini tartibga keltirish ishlari amalga oshiriladi.**

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlari davom etmoqda. Yo'zgi ta'til payti pedagoglarni ishga chiqarish holatlari ham oddiy holga aylangan. Bu o'z navbatida ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. "Maktablardagi remont ishlari nega o'qituvchi qilishi kerak?" qabiligidagi savollar ham yetarli. Yuqoridagi keltirilgan qarorga muvofiq maktab hududidagi qurilish-ta'mirlash ishlariga pedagoglarning jalb qilinishi hashar hisoblanmaydi. Chunki bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjati yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori mavjud emas! Pedagoglarning malaka talablari, lavozim yo'riqnomalari yoki ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasida qurilish, ta'mirlash, obodonlashtirish ishlarini bajarish nazarda tutilmagan. Buni ish beruvchilar juda yaxshi bilishadi, shu tufayli pedagoglar "agar shu ishni qilmasang, dars bermayman" degan tazyiq bilan ishga jalb etilyapti. Mehnat kodeksining 7-moddasiga ko'ra, "biron-bir jazoni ko'llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan, mehnat intizomini saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash taqiqlanadi". Afuski, xodimlarning hammasi ham mehnat qonunchiligida belgilangan huquqlaridan xabardor emas.

Ayrim holatlarda maktab jamoasi o'zaro kelishib, ixtiyoriy ravishda ta'lim muassasasi hududida obodonlashtirish ishlarini bajarishi (tozalash, suv sepsish, gul yoki ko'chat ekish,

sinfxonalarining ozodligiga qarash) qonunga zid emas, lekin bu jarayonning muntazam ravishda bajarilishi va majburiy tus olishi, xodimning ta'til davrida o'zi istamagan holda, turli qo'rqitish, po'pisa yo'li orqali tashkil etilishi majburiy mehnat hisoblanadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining uzoq yillik tajribasiga asosan, **xodimning xohishiga zid ravishda bajarilgan, ish haqi to'lanmagan, funksional vazifadan tashqari bajarilgan, tahdid ostida bajarilgan, xavfli va zararli joylardagi ishlar, shuningdek, xodimlarning zaifligini suiste'mol qilish, ish vaqtidan tashqarida ishlatish majburiy mehnat hisoblanadi.**

Ma'lumki, xodimning belgilangan kundalik ish muddatidan tashqari ishlashi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga asosan, ish vaqtidan tashqari ish, deb yuritiladi. Ish vaqtidan tashqari ishlarga xodim o'z roziligi bilan jalb etilishi lozim. Mehnat kodeksining 130- va 132-moddalariga binoan, xodimlarni dam olish kunlari ishlatish taqiqlanadi. Ish beruvchining farmoyishi bo'yicha ayrim xodimlarni dam olish kunlari ishga jalb etish alohida hollardagina — jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilangan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi.

Mehnati kodeksining 157-moddasiga asosan esa, ish vaqtidan tashqari ishlar, dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishlar uchun kamida ikki barobar miqdorida haq to'lanadi. To'lanadigan haqning aniq miqdori jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilanadi. Bayram yoki dam olish kunidagi ish xodimning xohishiga qarab boshqa dam olish kuni (otguli) berish bilan qoplanishi mumkin. Xodimning iltimosiga binoan ish vaqtidan tashqari bajarilgan ish soatlariga teng keldigan miqdorda dam olish kuni (otguli) berilishi ham mumkin. Bayram yoki dam olish kunidagi ish yoxud ish vaqtidan tashqari bajarilgan ish uchun boshqa dam olish kuni berilgan taqdirda, bunday ishlar uchun kamida bir hissa miqdorda mehnat haqi to'lanadi.

Mehnati kodeksining 177-moddasiga ko'ra, ish beruvchi xodimdan uning mehnat vazifalari doirasiga kirmaydigan ishlarni bajarishni, qonunga xilof yoki xodim va boshqa shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'diruvchi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar qilishni talab etishga haqli emas.

Shu o'rinda ish beruvchilar, ayniqsa, majburiy mehnatdan foydalanishga qarshi samarali kurashishga to'sqinlik qilayotgan ayrim rahbarlar xodimlarni o'z xizmat vazifalariga kirmaydigan qo'shimcha ishlar bilan band qilish ularni ruhiy va jismoniy to'liq qitirish hamda mehnat unumdorligiga jiddiy salbiy ta'sir qilishini unutmasliklari lozim. Zero, majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmo-

yishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari bunday salbiy illatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha barchadan birdek mas'uliyat talab etadi.

Kasaba uyushmalari tomonidan jamoa shartnomasi va mehnat to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi hamda majburiy mehnatdan foydalanishning oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Tashkilot va muassasalardagi boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarining mas'uliyati kuchaytirildi. O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi tomonidan joylarda majburiy mehnat alomatlari aniqlanganda tezkor xabar berish uchun O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi hamda Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining "Ishonch telefonlari" ishlab turibdi. Mazkur muammolarni o'rganish maqsadida, Respublika kengashi xodimlarining viloyatlarga xizmat safari tashkil etilib, amaliy yordamlar ko'rsatilib, mehnat jamoalarida mehnat munosabatlarining to'g'ri tashkil etilganligi, majburiy mehnatga barham berilganligi yuzasidan mehnatkashlar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, ochiq muloqotlar o'tkazilmoqda.

Joylarda majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik borasida kasaba uyushma faollarinin huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raislari uchun maxsus o'quv mashg'ulotlari muntazam ravishda tashkil etilmoqda. O'quv mashg'ulotlarida majburiy mehnat unsurlari, unga yo'l qo'ymaslik borasida amal qilinishi lozim bo'lgan milliy va xalqaro mehnat standartlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilmoqda.

Oxirgi paytlarda majburiy mehnat holatlarining aksariyatida umumta'lim maktablari o'qituvchilari jalb qilinayotgani sababli ish beruvchilarning milliy va xalqaro mehnat standartlaridan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida malaka oshiradigan ish beruvchilar — umumta'lim maktablari direktorlari uchun reja asosida doimiy o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmoqda. Mazkur o'quv mashg'ulotlarida xalqaro va milliy mehnat standartlari, bandlik, mehnat munosabatlarining mazmun-mohiyati bilan birgalikda majburiy mehnatni batamom bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar berilmoqda.

Ayni kunlarda xalq ta'limi xodimlari mehnat ta'tilida bo'lishiga qaramay, haq to'lanmaydigan ishlarga jalb etilayotganligi ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Birgina misol, joriy yilning 19-iyul kuni Respublika kengashining ishchi guruhi Namangan viloyati Chust tumanidagi 9-umumta'lim maktabi o'qituvchilarini majburiy mehnatga jalb qilish holatini o'rgandi.

O'rganish jarayonida, Chust tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri Shavkat Yo'ldoshev hamda 9-umumta'lim maktabining bir guruh pedagoglari bilan suhbat o'tkazilib, maktabda joriy yilning may — iyul oylarida amalga oshirilayotgan qurilish, obodonlashtirish ishlariga navbatma-navbat 50 foizga yaqin o'qituvchilar jalb qilinganligi aniqlandi. Xususan, barcha pedagoglar uchun joriy yilning 11—21-iyun kunlari mehnat ta'tili berilgan bo'lsa-da, pedagoglar ta'til payti maktab hududini tozalash, g'isht va qum tashishga majbur etilgan.

Ochiq muloqotlar davomida mazkur ta'lim muassasasi pedagoglari tomonidan

maktabda ijtimoiy-ma'naviy muhitning yaxshi emasligi va direktor tomonidan qonunbuzilish holatlariga tez-tez yo'l qo'yilishi, bundan ularning qattiq norozi ekanliklari bildirildi. Bunga qo'shimcha ravishda tegishli video va audio faktlar ham taqdim etildi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, o'rganish jarayonida ayrim pedagoglar o'z xohishi bilan tozalash ishlariga kelganliklarini ta'kidladilar. Shu o'rinda o'qituvchilarga mehnat shartnomasida belgilangan vazifalardan tashqari ishlarni o'z xohishi bilan ham bajarishlari mumkin emasligi, chunki qurilishda baxtsiz hodisa ro'y berish ehtimoli yuqori ekanligi tushuntirildi.

Respublika kengashining ishchi guruhi tomonidan tuman xalq ta'limi bo'limiga kasaba uyushma a'zolarining mehnat munosabatlariga oid huquqlarini himoya qilish maqsadida taqdimnoma kiritildi. Unda Chust tumanidagi 9-umumiy o'rta ta'lim maktabida dam olish kunlari va mehnat ta'tili davrida obodonlashtirish ishlariga jalb qilingan o'qituvchilar ro'yxatini tuzgan holda ularga Mehnat kodeksining 130-, 131-, 132-, 157-moddalariga asosan dam olish kuni berish yoki ikki hissa ish haqi to'lash bo'yicha buyruq chiqarish, tumanidagi barcha maktablarda mehnat qilayotgan pedagoglarning ta'til olishi holatini qat'iy monitoring qilish va kelgusida mehnat qonunchiligi talablariga va xodimlarning mehnat huquqlari ta'minlanishiga qat'iy rioya qilish, xodimlarning mehnat huquqi bo'yicha savodxonligini oshirish borasida seminar tashkil etish vazifalari topshirildi. Taqdimnoma tabalarini bajarish yuzasidan 2019-yil 19-iyulda tuman xalq ta'limi bo'limining 63-sonli buyrug'i chiqarilib, ijroga yo'naltirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Respublikamizda qonun ustuvorligini, xususan, pedagoglarning mehnat sohasidagi huquqlarini qat'iy ta'minlash maqsadida O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi ish beruvchilar, xodimlar — kasaba uyushma a'zolari, quyi bo'g'in tarmoq kasaba uyushma tashkilotlari va keng jamoatchilikni quyidagi masalalarda ogohlikka va hamkorlikka chaqiradi:

— paxta yig'im-terimi mavsumida majburiy mehnat shakllarining oldini olish bo'yicha boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlari bilan birgalikda faollik ko'rsatish;

— joylarda majburiy mehnatning oldini olishda tashabbus ko'rsatgan holda ish beruvchilar bilan mazkur masalada doimiy ijtimoiy muloqot tashkil etish va sohadagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatgan holda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlari va kasaba uyushmalarining 1092, 71-256-70-32 raqamli Ishonch telefonlari orqali xabar berish;

— ish beruvchilar esa o'z xodimlarining barcha sohadagi, xususan, mehnat sohasidagi huquq va erkinliklarini hurmat qilishi, har bir muassasada xodimlarning mehnat shartnomasi asosida aniq belgilangan xizmat vazifalari hamda mehnatga haq to'lash tizimi qonun va qonunosti hujjatlari bilan belgilab qo'yilganligini eslatgan holda, ulardan ushbu yo'nalishdagi huquqiy madaniyatlarini yanada oshirish, milliy hamda xalqaro mehnat standartlariga qat'iy amal qilishni yoddan chiqarmasliklari zarur.

Lazokat TURIKOVA,
O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat
xodimlari kasaba uyushmasi
Respublika kengashi bosh mutaxassisi

Oʻzbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi Qonunida raddiya maqola yozish va uni eʼlon qilish toʻgʻrisida maxsus moddalar bor. Buni ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy maʼlumotli mutaxassislar va har bir fuqaro biladi, deb faraz qilamiz. Qonundan koʻchirma keltirib oʻtirmaymiz. Har bir fuqaro yoki asar muallifi oʻzi yoki oʻz asari toʻgʻrisida yozilgan maqolaga javoban raddiya maqola yozish va uni OAVda chop ettirish huquqiga ega. Raddiyadan maqsad notoʻrin yoki notoʻgʻri bildirilgan fikrlarni dalil va isbotlar asosida rad etishdir. Lekin oʻzini oqlash va asari haqida tanqidiy fikr bildirgan mutaxassisga zarba berish maqsadida yozilgan maqola raddiya mohiyatidan uzoq.



Oʻzbekiston tumanidagi 16-maktabning ona tili va adabiyoti fani oʻqituvchisi O.Mavlonov “Maʼrifat” gazetasining 2019-yil 24-iyul sonida eʼlon qilgan raddiya maqolasi sarlavhasida “Raddiya madaniyatini unutdikmi?” degan savol qoʻyibdi. Maqolaning mazmuni va yozilish uslubidan ayon boʻladiki, haqiqatan ham, muallif raddiya madaniyatini unutgan yoki bilmagan. U oʻzini dastlabki jumalardayoq “bir madaniyatli kishi sifatida” tavsiflashda, maqolaning uslubida dalil-isbotlar bilan rad etish oʻrniga oʻzi munosabat bildirayotgan muallif shaʼnini yerga urish, shaxsiyatiga, izzat-nafsiga tegish, tahlirlash usuli yetakchilik qilgan. U maqolasini shunday yakunlagan: “Ilm kishisini bu qadar past koʻrib munosabatda boʻlmoq axloqli kishiga xos emas”. “Axloqli kishiga xos emas” degan gap — axloqsiz demakdir. Bu esa — haqorat. Bunday haqorat uchun Oʻzbekiston qonunchiligida jinoiy javobgarlik belgilangan. Axloqsizlik — shaxsning xarakteri, feʼl-atvori, faoliyati, qingʻir va gʻayriinsoniy qilmishlariga nisbatan qoʻyiladigan ulkan ayblovdir. Lekin butun umrini ilm-fan va maʼrifatga fido qilayotgan, ilmiy haqiqatlar yoʻlida jonkuyarlik bilan kurashayotgan, yigimardan ortiq kitob va darsliklar yozgan, filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi aʼlochisi, “Turon” fanlar akademiyasining haqiqiy aʼzosiqa nisbatan bu isnodli ifodani matbuot orqali birgina tanqidiy maqolasi uchun qoʻllash oʻtaketgan shafqatsizlik va madaniyatsizlikdir.

Qonunda raddiya maqola tegishli OAVning navbatdagi sonida toʻliq holda eʼlon qilinishi huquqi belgilangan. Lekin unda raddiya maqola tahrir etilmasin deyilmagan. Aks holda, muharrirning vazifasi qayoqda qoladi? Raddiya maqola ham tabiiy va qonuniy ravishda tahrir jarayonidan oʻtishi lozim. Tahrir tushunchasi “harir” soʻzidan kelib chiqqan.

“Harir” — toza, shaffof, begʻubor, pok degan maʼnolarni anglatadi. Binobarin, muharrir maqolaning mazmuni va butunligini saqlagan holda, undagi alamzadalik, xusumat, tuhmat, haqorat tuygʻularini ifodalovchi soʻz-ifodalaridan tozalashga haqli edi. Bu raddiyani nashrga tayyorlash hamda chop etish huquqi va madaniyatiga kiradi. Afsuski, muharrirlarimiz shunday huquqlarini anglamaganlar yoki vazifalarini bajara olmaganlar. Bunaqada matbuot tuhmat va haqoratning minbariga aylanib qolishi xavfi tugʻiladi.

O.Mavlonov maqolasini juda alamzadalik va oʻta izzatlablik bilan yozgan. U tahririyat orqali menga xat ham yoʻllagan edi. Xat ham jahl, gʻazab, nafrat, ehtirosga berilib yozilgan. Bir tanqidiy maqola uchun shuncha gʻazab oʻqlariga nishon boʻlaman, deb oʻylamagan ekanman. Janoblari faqat maqtoʻv va ragʻbatga oʻrganib qolgan ekanlar, shekilli. Bunaqada tanqid degan narsani yer yuzidan supurib tashlash kerak ekan-da. Darvoqe, jamiyatda tanqid muhitining tobora yoʻqolib borayotgani ham tanqidga nisbatan nosogʻlom munosabat shakllanayotganiga sabab boʻlmoqda. Abdulla Qahhorning birqaynovi ichida, uzib-uzib oladigan, qalampirday achchiq, zirapchaday, nisharday botadigan tanqidiy mulohazalariga, obrazli iboralariga duchor boʻlishsa, nima qilishar ekan?! Soʻzlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti peshtoqiga muhrlangan mutafakkir Shayx Saʼdiy Sheroziyning “Guliston” asaridagi tanqidning ahmiyati va maqtoʻvga mazaxoʻrak boʻlish toʻgʻrisidagi mana bu pandi juda ibratlidir: “Soʻz aytur kishining soʻzin to yana bir kishi ayb qilmagʻuncha soʻzi isloh topmagʻusidur va xalqʻa maqbul boʻlmagʻusidur. Bayt:

Soʻzinga gʻarra boʻlma shirin deb,
Anga nodonlar aylasa tahsin”.

Izzatlablik shu darajaga yetgan-ki, O.Mavlonov bizning raddiyamizni “muallif shaxsiga bepisandlik ufurib turgan” deya qayta-qayta taʼkidlaydi. Oʻziga

Raddiya huquqi va madaniyati

ortiqcha iltifot talab qilishga ruju qoʻyib, maqolamiz ichidagi mavjud murojaat ifodalarini yoʻqqa chiqarib, tuhmat qilayotganini, ulugʻ yoshdagi, tajribali muallimga yarashmaydigan maydakashlikka berilganini bilmay qoladi: “Munaqqid maqola muallifini (yaʼni meni) 5 oʻrinda “U”, 15 oʻrinda “O.Mavlonov”, bir joyda hatto “voiz” deya bepisandlik bilan qalamga olgan. Raddiya uslubiy jihatdan samimiy va begʻaraz boʻlsa, munaqqid domla, shorih, tahlilchi, muallim, tadqiqotchi, oʻqituvchi, muallif, sharhlovchi, boringki, talqinchi singari soʻzlardan foydalanib, oʻz madaniy saviyasining komilligini ifodalari edi”. Biz ham qimmatli onlarimizni sanoqqa sarflashga majbur boʻldik. Xoʻsh, “U” olmoshi muomalada normativ holat emasmi, qachondan boshlab “U” — bepisandlik alomati boʻlib qoldi? Ism-familiyasini qoʻllaganimizni sanaganida ongli ravishda oʻz foydasiga hisobdan adashgan. Biz 2-xatboshida ism-familiyasini toʻliq keltirganimiz. Odatda, ism-familiya 1 marta toʻliq keltiriladi, keyingi oʻrinlarda uslub va hajm talabi bilan ismning 1-harfi qisqartma holda beriladi. Shu boisdan keyingi 14 oʻrinda ismining 1-harfini qisqartma holda berganmiz. Boringki, 15 oʻrinda “O.Mavlonov” degan boʻlsak, ism-familiyasini 15 oʻrinda sharaflagan boʻlamiz-ku! Biz uni “voiz” demaganmiz, Navoiy tanqididagi voizga oʻxshaydi, deganmiz. Uni voiz deyish ortiqcha lutf boʻlar edi. Chinakam voizlik oʻtmishda ham, hozir ham har kim muyassar boʻlolmaydigan ulugʻ sanʼatkorlikdir. Bundan tashqari, biz “muallif” (7-, 9-, 15-, 29-xatboshi), “gʻazal talqinchisi” (3-xatboshi), “tahlilchi” (5-xatboshi), “talqinchi” (10-xatboshi), “shorih” (12-xatboshi), “muallim” (14-xatboshi) kabi iltifot iboralari bilan O.Mavlonovning hurmatini joyiga qoʻyganmiz.

Muallif raddiyasi boshidanoq oʻzining “ilmiy tadqiqotchi emas, metodik amaliyotchi ekanini”ni eslatadi. Lekin maqolaning soʻnggi jumlasida oʻzini “ilm kishisi” deya eʼtirof etadi. Aslida, metodik ishlanmalar yaratish ham ilmiy tadqiqotchilik-ka kiradi. Garchi muallim buni bilsa-da, tahlili tanqidga uchragach, oʻzini metodika tomon olib qochishga urinadi. “Tahlil, asosan, ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilariga tajriba uchun metodik ishlanma sifatida tayyorlangan”, deya daʼvo qiladi u. Goʻyoki N.Jumaxoʻja gʻazal tahlili bilan metodik ishlanmaning farqini bilmaydigandek: “Domlaning umri ilm olamida oʻtayotgani bois buni toʻgʻri ilmiy talqin maʼnosida qabul qilgan koʻrinadi”, deb yozadi. Holbuki, kamina ilm olamida sof ilmiy-nazariy tadqiqot mashgʻuloti bilan cheklanganimiz yoʻq. Ilmiy-pedagogik faoliyatimizni umumtaʼlim maktabida oddiy ona tili va adabiyot oʻqituvchisi boʻlib ishlashdan boshlaganmiz, Nafis sanʼat litseyida dars berganmiz, darslik va oʻquv-metodik qoʻllanmalar yaratganmiz, umumtaʼlim maktablari va adabiyot chuqurlashtirib oʻqitiladigan maktablar uchun oʻquv dasturlari tuzishda ishtirok etganmiz, bir necha yil Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika ilmiy tadqiqot institutida, Toshkent viloyati oʻqituvchilar

malakasini oshirish institutida ishlaganmiz. Koʻp yillardan buyon Respublika taʼlim markazidagi ona tili va adabiyot fanlari boʻyicha Ilmiy-metodik kengash aʼzosi sifatida faoliyat koʻrsatib kelimiz. Yuzlab muallimlarning ilmiy-metodik ishlanmalari va bitiruv-malakaviy ishlari muhokamarida ishtirok etganmiz. Ularga ilmiy rahbarlik qilganmiz. Mana shu tashvishlar taqozosi bilan ilmiy-metodik ishlanma nima ekanligini va uning gʻazal tahlilidan farqini yaxshi bilamiz.

O.Mavlonov maqolasini goh 15 yoshli oʻquvchilarga moslab yozilgan, gohi esa ona tili va adabiyot oʻqituvchilariga moʻljallangan deya tavsif etadi: “Maqola adabiyot muallimlari oʻrtasida oʻzaro tajriba almashish niyatida taklif qilingan xususiy xarakterdagi metodik tajribaviy tavsiya... oʻqituvchiga ilmiy-metodik tavsiya tariqasida berilgan...” Maqolaning oʻzida esa bunday gaplar yoʻq. Agar u chindan ham ilmiy-metodik ishlanma boʻlsa, maqolaning oʻzidayoq aytilishi kerak edi. Maqolada esa uning ilmiy-metodik tavsiya ekanligi toʻgʻrisida aqalli birorta ishora ham yoʻq. Asli, u maqola ilmiy-metodik ishlanma emas — oddiy gʻazal tahlil. Mazkur maqolani yozishdan muallifning ilmiy-metodik ishlanma yoki tavsiyanoma yaratish maqsadi boʻlmagan. Ilmiy-metodik ishlanma darslik-majmualarga materialni oʻzlashtirish va oʻquvchilarga singdirish usul-vositalarini tushuntirib beradigan, oʻqituvchilarga yordam tariqasida tayyorlanadigan ishdir. Unda metodchi asarni oʻrganish va oʻrgatishda uning qaysi tomonlariga eʼtibor qaratish, qanday usul-vositalardan foydalanish toʻgʻrisida maslahat va tavsiyalar beradi, yoʻl-yoʻriq koʻrsatadi. O. Mavlonov maqolasida bunday xususiyatlar mutlaqo yoʻq. Faqat sarlavhada niqob (maskirovka) tariqasida “oʻrganish” soʻzi qoʻllangan, xolos. Ichkarida esa anʼanaviy gʻazal tahlili berilgan. Sarlavhada bir narsani vaʼda qilib, ichkarida boshqa narsani oʻtkazib yuborish almisodqan qolgan eski usul. Mutafakkir Munis buni obrazli qilib “Mushtariy-gʻa jav sotar zohrida gandum koʻrguzub” (yaʼni xaridorga bugʻdoyni koʻrsatib, qop ichida pinhona arpani sotadi), deya ifodalagan. Muallifning chorak asr oldingi tahlilini aynan qayta eʼlon qilishdan maqsadi shon-shuhrat lazzatini yana bir bor tatib koʻrish boʻlgan. Tahlili ilm yangiliklari oldida maʼnaviy jihatdan eskirganligi xayoliga ham kelmagan.

Oʻzi haqidagi tanqidiy mulohazalar toʻgʻrisida jiddiyoq oʻylab koʻrmasdan, tanqidchining oʻzidan illat izlashga urinish ojizlik alomatidir. Balki sabr-bardosh bilan jiddiy mushohada yuritilsa, iqroga olib borarmidi? Na chora, ilmiy jarayondan uzoq kishining birdan ilmiy jarayonga aralashib qolishi shunday oqibatga olib kelishi tayin. O.Mavlonov “Qaro koʻzum” gʻazali oʻrganilishining 40 yillik tarixi tafsilotlarini kuzatmagan, bilmaydi. U bizni “Oʻz AS”da 1987-yil 27-fevralda chop etilgan “Gʻazal va tahlil” sarlavhali maqolamizda va “Oʻzbek adabiyoti” (10-sinf, 1990-yil) darsligimizda gʻazal tahlili tarixi haqida batafsil toʻxtalmaganlikda ayblaydi. Shuni bilish lozim ediki, “Gʻazal

va tahlil” maqolamiz yozilganida (1984-yil) joriy matbuotda birgina I.Abdullayevning “Qaro koʻzum” gʻazali tahliliga bagʻishlangan maqolasi bor edi, xolos. Tanqidiy maqolamiz oʻsha tahlil yuzasidan yozilgan. Darslik 1999-yilda nashr etilgan boʻlsa ham, u 1990-yilda yozilgan edi. Yangi darslikning nashr etilishi yoʻlidagi 9 yillik azob-ububatning oʻzi alohida bir katta tarix. Umr vafu qilsa, bu haqda ham yozarmiz. Aytmoqchimizki, 1990-yilda ham “Qaro koʻzum” gʻazalining endigina bir necha talqini maydonga kelgan, biz ular haqidagi maʼlumotni “Satrlar silsilasidagi sehr” kitobimiz va 10-sinf “Oʻzbek adabiyoti” darsligimizda umumlashtirganmiz. Shundan keyin yana oʻnlab talqinlar yuzaga chiqdiki, biz ularni oldindan bashorat tariqasida qamrab ololmasdik.


Darslik uslubli O.Mavlonov ishora qilgan ilmiy apparatga imkon bermaydi. Shuning uchun darslik matni ilmiy havolalarisiz sodda uslubda bayon etilgan. “Qaro koʻzum” gʻazali tahlili darslikda katta hajmda berilganiga kelsak, Istiqlof arafasida, tarixda birinchi marta milliy taʼlimga davlat miqyosida katta imkoniyat ajratildi. Navoiy hayoti va ijodiyotini tarixda bir-martagina umumtaʼlim maktablarida 32 soat hajmida oʻqitishga sharoit boʻldi. Shu munosabat bilan Navoiy lirikasini biz darslikda 60 bet atrofida yozishga muvaffaq boʻldik. Darslikdan “Qaro koʻzum”dan tashqari yana Navoiy olti gʻazalining mufassal tahlili oʻrin olgan. Bu oʻsha davrda Navoiyni oʻrganish sohasida juda katta yulqib, yutuq, muallifning ham, oʻqituvchilarning ham, oʻquvchilarning ham baxti edi. Bu haqida koʻp oʻqituvchilar va oʻquvchilarning tahsiniga sazovor boʻlganmiz. Hozir ham uchrashuvlarda oʻqituvchilar oʻsha darsligimizni qoʻmsaydilar, armon bilan tilga oladilar, imkon topib qayta nashr qilishimizni soʻraydilar.

O.Mavlonov tahlili endi eʼtiborimizni torganiga sabab “Qaro koʻzum” gʻazali toʻgʻrisidagi mavjud tahlillarni umumlashtiradigan, analizlarni sintez qiladigan davr allaqachon kelgan. Biz bu sohada maxsus bir tadqiqot-risola yaratdik. Unda Erkin Vohidov, Matyoqub Qoʻshjonov, Alibek Rustamov, Ismatulla Abdullayev, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqulov, Abdulla Aʼzamov, Boyboʻta Doʻstqorayev, Ismoil Bekjonov, Oqiljon Mavlonov, Omonulla Madayev, Vahob Rahmonov, Sultonmurod Olimovlarning tahlillari tadqiqot doirasiga tortilgan. Xamir uchidan patir tariqasida “Sharq yulduzi” jurnalining 2016-yil 3-sonida “Mashhur gʻazal tahlillari tadqiqi” sarlavhali maqola ham chop ettirganmiz. Tadqiqotda barcha tahlillarning yutuq va kamchiliklari umumlashtirilishi koʻzda tutilgan. Unda O.Mavlonovning tahlilini chetlab oʻtsak, toʻgʻri boʻlmadi. Tabiiyki, uning tahlili oʻz davrida yangilik boʻlgandir. Lekin yuqoridagi toʻyxati keltirilgan nufuzli olimlar tahlillari koʻlami va saviyasi oldida u endi yangilik bera olarmidi? Muallif gʻazal tahlillarining tarixiy tadjridan xabardor boʻlganida, balki maqolasini qayta eʼlon qilishni soʻramagan boʻlardir.

O.Mavlonov qattiq yopishib olgan bir maqolamiz tarixi toʻgʻrisida toʻxtalmas-

dan ilojimiz yoʻq: “Muallifning filologiya fanlari doktori Ismatulla Abdullayevdek ilmiy darajasi yuqori, yoshi ulugʻ ustozga nisbatan oʻta keskin va qoʻpol yoʻsindagi bayon usulida berilgan va koʻp muxlislari orasida eʼtirozli shov-shuvga sabab boʻlgan ilk raddiya maqolasidagi axloqiy sajiyasi oʻsha davrda ilm ahliga, ustozlarga munosabati qay darajada boʻlsa, ming ajabki, oradan 32 yil oʻtib bu raddiyada ham yana yosh adabiyotshunosdek qiziqqonlik bilan mulohaza bildirish usuli saqlanib qolganidan dalolat beradi”. Ona tili va adabiyot muallifining jumla tuzishini koʻring! Grammatik jihatdan gʻaliz va tahrirlab bu jumlasida bizning shaʼnimizga eplaganicha qora chaplabdi. Biroq hammasi u bulgʻaganidek emasligini jamoatchilik biladi. Gap-soʻzlariga qaraganda, bizdan 10 yoshlar chamasi kichik bir odam oʻzi umrida koʻrmagan, bilmagan ziyolining shaxsiyati, axloqiy sajiyasi haqida bemalol muhokama yuritishga qanday haddi sigʻdi?! Qolaversa, nega biz 32 yil mobaynida oʻzligimizni saqlab qolmasligimiz, haqiqatni toʻgʻri aytish uslubimizdan chekinishimiz kerak? Haqiqat turlanmagani va tuslanmagani singari haqiqat uchun kurashuvchi ham turlanmaydi, tuslanmaydi.

“Gʻazal va tahlil” — raddiya emas, balki ilmiy-tanqidiy maqola. “Qaro koʻzum” gʻazali haqidagi birinchi tahliliy maqola 1975-yil 22-oktabrda “Toshkent oqshomi” gazetasida filologiya fanlari nomzodi I.Abdullayev tomonidan eʼlon qilindi edi. 1986-yili shu gazetada “Mashhur gʻazallar tahlili” rukni qayta tiklanib, tez-tez gʻazalning nasriy bayonlari paydo boʻla boshladi. Ushbu rukn va uning oʻlibanib maqsadi kishini quvontirar, chiqayotgan tahlillarning sifat va saviyasi esa oʻylantirardi. Negaki yoritish uchun Sharq gʻazaliyotining eng mumtoz namunalari tanlanar, tahlil esa nihoyatda ibtidoiy va sayoz boʻlardir. Men — yosh tadqiqotchiga gʻazal boʻstonining nodir chechlaklari tobora gʻorat qilinyotgandek tuyulardi. Bu holdan otashin va hayron edim. Madad soʻrab, birga ishlaydigan ustoz navoiyshunoslardan Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdugʻafurov, Yoqubjon Isʼhoqovlarga murojaat qildim, sodir boʻlayotgan ahvolga munosabat bildirish zarurligi haqida fikrlashdim. Lekin hamma oʻz reja va ishlari bilan bandligi boisdan boʻlsa kerak, amaliy aks-sado topmadim. Ortiq “odob doirasi”da turolmay, “Tahlil mukammal boʻlsin” sarlavhali maqola yozdim. Unda, asosan, “Qaro koʻzum” gʻazali tahlili va yana mazmuni bayon etilgan boshqa gʻazallar haqida bahs ochildigan. Oylar oʻtib, maqola sarlavhasi oʻzgartirilib, biroq qisqartirilib, “OʻzAS”da eʼlon qilindi. Maqola kutilmaganda, O.Mavlonov gʻazali maqsadda aytgani-da “eʼtirozli shov-shuvga” emas, katta olimlar muhokama-munozarasiga sabab boʻldi. Gazetaning navbatdagi sonlarida filologiya fanlari doktorlari, professorlar Ismatulla Abdullayevning “Har soʻzning oʻz oʻmi bor”, Gʻulom Karimov va Abduqodir Hayitmetovlarning “Bahs madaniyati” sarlavhasi ostidagi alohida-alohida, akademik Alibek Rustamovning hakam-



lik maqolalari chop etildi. Bu ulugʻ olimlarning birortasi maqolamizga “oʻta keskin va qoʻpol” deya baho bermagan. Aksincha, qoʻllab-quvvatlab, toʻgʻri ilmiy baho bergan. A.Rustamov: “Nusratulla Jumayevning maqolasida Ismatulla Abdullayevning mashhur gʻazallarga bergan sharhlaridagi xatolar toʻgʻri koʻrsatilgan... N.Jumayevning boshqa gʻazal va baytlar haqidagi fikrlari toʻgʻri va ularni tan olish kerak”, A.Hayitmetov: “Bu maqolalarning hammasiga xos xususiyat adabiy merosga hurmat va bilimdonlik bilan munosabatda boʻlishni talab etishdir”, I.Abdullayev: “N.Jumayevning adabiyotimiz tarixidan ancha-muncha maʼlumoti borligi va boy madaniyatimiz uchun jonkuyarlari maʼlum boʻlib turibdi”, degan. Hatto kamchiligini tan olib: “Bizning tahlilimizda ‘gʻamza-da — gʻam chekkan, jabrlangan” soʻzi notoʻgʻri talqin qilingan, buning uchun gazetonlardan uzr soʻraymiz”, deya mardligini koʻrsatgan. Tabiiyki, koʻyish va eʼtirozlar ham boʻlgan. Zero, kamina shogird, ular ustoz edilar.

Oradan 30 yildan ortiqroq vaqt oʻtgandan soʻng, oʻsha davrda “OʻzAS”da ishlagan va tahririyatda ushbu bahs-munozara jarayonining qanday kechganidan bevosita xabardor boʻlgan yozuvchi-journalist Ashurali Joʻrayev oʻzining “Odil Yoqubov xazinasidan” nomli kitobida munosabat bildirib: “Maqolalarda... yechim kutayotgan muammolar koʻtarilgani bois gazetonlar tomonidan qizgʻin kutib olingan va ularning bahs-munozaralariga sabab boʻlgan”, deydi (A.Joʻrayev. Odil Yoqubov xazinasidan. “Oʻzbekiston”, T., 2017, 25-bet). Darhaqiqat, bir gʻazal bahsida besh zabardast olimning ishtirok etishi, bahsga uch fan doktori, professorning hakam sifatida munosabat bildirishi shungacha va shundan keyin ham tarixda uchramagan hodisa. Shuning uchun biz bu maqolamiz bilan faxrlanamiz.

Oʻqituvchi yana bir oʻrinda: “Oʻrtaga dunyodagi barcha aziz narsalarni qoʻyib soʻz beramanki, men domlaning 1987-yil 27-fevraldagi maqolasidan soʻng hech qaysi chiqishlarini oʻqimaslikka oʻz-oʻzim-

ga soʻz berganman”, deya manmanlik qiladi. Adabiyot oʻqituvchisi bunday fikrlashi va uni matbuot orqali izhor etishi ajablanarli. Bu gapga ishonib ham boʻlmaydi. Hayot tajribasidan bilamizki, odatda, qasamxoʻr, katta gapiradigan odamlar oʻz soʻzlarida turmaydilar. Oʻqimayman deb, mumtoz adabiyot qismini biz tuzgan oʻquv dasturlari, katta qismini biz yozgan 10-sinf “Oʻzbek adabiyoti” darsligi va majmuaasidan foydalanib maktabda dars oʻtib, oylik olib, oila tebratib, qozon qaynatganligining oʻziyoq fikrimizning yaqqol dalilidir. Bundan tonolmaydi, chunki dastur, darslik, majmua — davlat oʻquv standarti hisoblanadi. Axir u oʻn yillar mobaynida darslikdagi bizning fikrimiz bilan dars oʻtgan, bizning tilimiz bilan gapirgan, biz bayon etgan bilimlarni minglab, balki millionlab oʻquvchilar omamasiga singdirgan. Uning bunday gaplari nonkoʻrlik, tuzini yeb, tuzlugʻiga tupurish emasmi? Darsligimizdan taʼlim olib, taʼlim bergan oʻqituvchi bizning shogirdimiz qatori odam emasmi? Biz oʻsha maqoladan keyin Respublika matbuotida yana 300 dan ortiq chiqish qildik. Qancha-qancha kitoblar yozib chop ettirdik. Ularning har birida til-adabiyot, ilm-maʼrifat, taʼlim-tarbiya, maʼnaviyat manfaatlarini yoritilgan. Shularning barisidan ongli ravishda bebahra qolgan boʻlsa, hayf unday ona tili va adabiyot oʻqituvchisiga!

O.Mavlonovning qolgan eʼtirozlari ham begʻaraz yozilmagan, asossiz, mayda-chuyda gaplar. Ular javob berishga arzimaydi. Biz shu paytgacha nimayiki yozmaylik, Navoiydek ulugʻvor siymolar, adabiyot, badiiyat himoyasini koʻzlaganmiz. Fikrimizni toʻgʻri, qatʼiy ifodalashga oʻrganganmiz. Qatʼiylik — hukm degani emas. Haqiqat, toʻgʻri soʻz achchiq boʻladi, kimgadir dagʻal tuyulishi mumkin. Plyuralizm — turlanigohlik — badiiy asarni har kim matbuotda istaganicha har tomonga tortqilab talqin etaverishi mumkin degani emas. Ayniqsa, Navoiy va boshqa mumtoz adiblarimiz asarlarini muvaqqat mufkuralar (avval — dahriylik, endi — mutaassiblik) xurujiga qurbon qilib qarab tura olmaymiz.

**Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim QIRG'IZ tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun
2019-2020-o'quv yilida foydalanishga tavsiya etiladigan darsliklar
RO'YXATI**

T/r	Darslik va o'quv qo'llanma nomi	Musallifi	Tavsiya etilgan yili	Ta'minlanish holati
1-sinf				
1	Alifbe (Алифбе)	A.Yunusaliyeva va b.	2019	Bepul
2	Yozuv dafolari (Жанры даярлау)	A.Yunusaliyeva va b.	2019	Bepul
3	Ona tili (Әне тили)	A.Yunusaliyeva va b.	2019	Bepul
4	O'qish kitobi (O'quv kitobi)	A.Zulpirayeva va b.	2019	Bepul
5	Matematika	M.Ahmedov va b.	2019	Bepul
6	Matematika dafolari	M.Jumayeva va b.	2019	Bepul
7	Atrofimizdagi olam	N.Mamadina va b.	2019	Bepul
8	Odobona	O.Hasanboyeva va b.	2019	Bepul
9	Tasviriy san'at	R.Hasanov	2019	Bepul
10	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2019	Bepul
11	"Kids' English"	M.Irsoqulov va b.	2019	Bepul
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2019	Bepul
13	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2019	Bepul
14	Texnologiya	I.Mannopova	2019	Bepul
2-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2018	Ijara
2	Ona tili (Әне тили)	S.Risbayev va b.	2018	Ijara
3	O'qish kitobi (O'quv kitobi)	G.Tuxtabayev va b.	2018	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Z.Abduraimova	2018	Ijara
5	Matematika	N.Abdurahmonova va b.	2018	Ijara
6	Atrofimizdagi olam	P.G'ulomov va b.	2018	Ijara
7	Odobona	O.Hasanboyeva va b.	2018	Ijara
8	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2018	Ijara
9	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2018	Ijara
10	Jismoniy tarbiya	K.Mahkamjonov va b.	2018	Ijara
11	"Kids' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
12	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
13	"Deutsch mit Spaß"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2018	Ijara
14	"Arbeitsheft"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2019	Ijara
15	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2018	Ijara
16	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
17	Texnologiya	X.Sanaqulov va b.	2018	Ijara
3-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2019	Ijara
2	Ona tili (Әне тили)	S.Risbayev va b.	2019	Ijara
3	O'qish kitobi (O'quv kitobi)	A.Zulpirayeva	2019	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	N.Sergeyeva va b.	2019	Ijara
5	Matematika	S.Burxonov va b.	2019	Ijara
6	Tabiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2019	Ijara
7	Odobona	M.Xoligova va b.	2019	Ijara
8	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2019	Ijara
9	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2019	Ijara
10	"Kids' English"	S.Xan va b.	2017	Bepul
11	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2017	Bepul
13	"Arbeitsheft"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2019	Ijara
14	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2017	Bepul
15	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
16	Texnologiya	X.Sanaqulov va b.	2019	Ijara
4-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2017	Ijara
2	Ona tili (Әне тили)	M.Temirova	2017	Ijara
3	O'qish kitobi (O'quv kitobi)	G.Yeraliyeva va b.	2017	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Karimova va b.	2016	Ijara
5	Matematika	N.Bekboyeva va b.	2017	Ijara
6	Tabiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2017	Ijara
7	Odobona	M.Xoligova va b.	2017	Ijara
8	Musiqi	O.Ibrohimov	2017	Ijara
9	Jismoniy tarbiya	K.Mahkamjonov va b.	2017	Ijara
10	Texnologiya	I.Mannopova va b.	2017	Ijara
11	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
12	"Kids' English"	S.Xan va b.	2016	Bepul
13	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
14	"Deutsch mit Spaß"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2016	Bepul
15	"Arbeitsheft"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2019	Ijara
16	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2016	Bepul
17	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
5-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2015	Ijara
2	Qirg'iz tili (Kazirpa tili)	M.Temirova va b.	2015	Ijara
3	Adabiyot (Адабият)	G.Yeraliyeva va b.	2015	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Y.Musurmonova	2016	Ijara
5	"New Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2017	Bepul
6	"Deutsch"	Z.Qiyomova va b.	2017	Bepul
7	"Je parle français"	A.Nozirov va b.	2017	Bepul
8	Tarixdan hikoyalar	U.Jo'rayev va b.	2015	Ijara
9	Matematika	B.Haydarov	2015	Ijara

10	Biologiya (Botanika)	O'.Pratov va b.	2015	Ijara
11	Informatika	D.Kamoliddinova	2016	Ijara
12	Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kurs)	P.G'ulomov va b.	2015	Ijara
13	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
14	Musiqi	A.Masurov va b.	2015	Ijara
15	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2015	Ijara
16	Tasviriy san'at	T.Qo'ziyev va b.	2015	Ijara
6-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Qirg'iz tili (Kazirpa tili)	S.Usenaliyev va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (Адабият)	B.Alimov va b.	2017	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	G.Gaslova va b.	2017	Ijara
5	"Teens' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2018	Ijara
7	"Voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2018	Ijara
8	Tarix (Qadimgi dunyo)	A.Sa'dullayev va b.	2017	Ijara
9	Matematika	M.Mirzaahmedov va b.	2017	Ijara
10	Fizika	N.Turdiyev	2017	Ijara
11	Geografiya (Matematik va okeanlar tabiiy geografiyasi)	A.Saotov va b.	2017	Ijara
12	Biologiya (Botanika)	O'.Pratov va b.	2017	Ijara
13	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
14	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Boltayev va b.	2017	Ijara
15	Musiqi	S.Begmatov	2017	Ijara
16	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
17	Tasviriy san'at	Q.Mirahmedov va b.	2017	Ijara
7-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Qirg'iz tili (Kazirpa tili)	V.Musayeva va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (Адабият)	B.Alimov va b.	2017	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slombekova va b.	2017	Ijara
5	"Fly High English"	S.Xan va b.	2019	Ijara
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2019	Ijara
7	"Bon voyage"	S.Umarova va b.	2019	Ijara
8	O'zbekiston tarixi	A.Muhammadjonov	2017	Ijara
9	Jahon tarixi	T.Salimov va b.	2017	Ijara
10	Algebra	Sh.Alimov va b.	2017	Ijara
11	Geometriya	A.A'zamov va b.	2017	Ijara
12	Fizika	P.Habibullayev va b.	2017	Ijara
13	Kimyo	L.Asgarov va b.	2017	Ijara
14	Biologiya (Zoologiya)	O.Mavlonov	2017	Ijara
15	Geografiya (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi)	P.G'ulomov va b.	2017	Ijara
16	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	M.Qarshiboyev va b.	2015	Ijara
17	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Boltayev va b.	2017	Ijara
18	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
19	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
20	Musiqi	O.Ibrohimov va b.	2017	Ijara
21	Jismoniy tarbiya	T.Ummonov va b.	2017	Kutubxona fondi
8-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova	2019	Ijara
2	Qirg'iz tili (Kazirpa tili)	B.Umiraliyev va b.	2019	Ijara
3	Adabiyot (Адабият)	M.Parpiyev va b.	2019	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Rojnova va b.	2019	Ijara
5	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2014	Bepul
7	"Le nouveau voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2014	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	U.Jo'rayev va b.	2019	Ijara
9	Jahon tarixi	R.Farmonov va b.	2019	Ijara
10	O'zbekiston davlati va huquq asoslari	O.Karimova va b.	2019	Ijara
11	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	R.Qo'chqor va b.	2015	Ijara
12	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
13	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Boltayev va b.	2015	Ijara
14	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
15	Geometriya	A.Rahimqoriyev	2019	Ijara
16	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
17	Kimyo	L.Asgarov va b.	2019	Ijara
18	Biologiya (Odam va uning salomatligi)	O.Mavlonov va b.	2019	Ijara
19	Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy-jimoiy geografiyasi)	P.Musayev va b.	2019	Ijara
20	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara

21	Texnologiya	O'.Tohirov va b.	2019	Ijara
9-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2019	Ijara
2	Qirg'iz tili (Kazirpa tili)	B.Umiraliyev va b.	2019	Ijara
3	Adabiyot (Адабият)	M.Parpiyev va b.	2019	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	R.Ummonova va b.	2019	Ijara
5	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
6	"Deutsch"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2014	Bepul
7	"D'un Etat à l'autre"	S.Rahmonov va b.	2014	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	S.Tillaboyev va b.	2019	Ijara
9	Jahon tarixi	M.Lafasov va b.	2019	Ijara
10	Konstitutsiyaviy huquq asoslari	G.Taspiyeva va b.	2019	Ijara
11	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	O.Musurmonova va b.	2015	Ijara
12	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
13	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Boltayev va b.	2015	Ijara
14	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
15	Geometriya	B.Haydarov va b.	2019	Ijara
16	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
17	Kimyo	L.Asgarov va b.	2019	Ijara
18	Biologiya (Sintlogiya va genetik asoslari)	A.Zakariyev va b.	2019	Ijara
19	Geografiya (Jahon iqtisodiy-jimoiy geografiyasi)	A.Qayumov va b.	2019	Ijara
20	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
21	Texnologiya	Z.Sattorova va b.	2019	Ijara
10-sinf				
1	Qirg'iz tili (Kazirpa tili)	M.Temirova va b.	2017	Ijara
2	Adabiyot (Адабият)	M.Temirova va b.	2017	Ijara
3	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slombekova va b.	2017	Ijara
5	"English"	F.Rashidova va b.	2017	Bepul
6	"Deutsch"	Sh.Imyaminova va b.	2017	Bepul
7	"France"	Z.Davronova va b.	2017	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	Q.Rajabov va b.	2017	Ijara
9	Jahon tarixi	Sh.Ergashev va b.	2017	Ijara
10	Dunyo dinlari tarixi	Z.Isomov va b.	2017	Ijara
11	Davlat va huquq asoslari	V.Kostetskiy	2017	Ijara
12	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2017	Ijara
13	Matematika (Algebra analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzaahmedov va b.	2017	Ijara
14	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Tayloqov va b.	2017	Ijara
15	Fizika	N.Turdiyev va b.	2017	Ijara
16	Organik kimyo	A.Mutalibov va b.	2017	Ijara
17	Biologiya	A.G'afurov va b.	2017	Ijara
18	Geografiya (Amaliy geografiya)	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
19	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Sh.Ubaydullayev va b.	2017	Ijara
11-sinf				
1	Qirg'iz tili (Kazirpa tili)	M.Temirova va b.	2018	Ijara
2	Adabiyot (Адабият)	M.Temirova va b.	2018	Ijara
3	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2018	Ijara
4	Russiy tili (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slombekova va b.	2018	Ijara
5	O'zbekiston tarixi	N.Jo'rayev va b.	2018	Ijara
6	Jahon tarixi	Sh.Ergashev va b.	2018	Ijara
7	Dunyo dinlari tarixi	Z.Isomov va b.	2018	Ijara
8	Davlat va huquq asoslari	N.Ismatova va b.	2018	Ijara
9	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2018	Ijara
10	Tadibkorlik asoslari	U.G'afurov va b.	2018	Ijara
11	Matematika (Algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzaahmedov va b.	2018	Ijara
12	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Tayloqov va b.	2018	Ijara
13	Biologiya	A.G'afurov va b.	2018	Ijara
14	Astronomiya	M.Mamadzimov	2018	Ijara
15	Fizika	N.Turdiyeva va b.	2018	Ijara
16	Umumiy kimyo	S.Masharipov va b.	2018	Ijara
17	"English"	F.Rashidova va b.	2018	Ijara
18	"Deutsch"	Sh.Imyaminova va b.	2018	Ijara
19	"Libre opinion"	M.Jo'rayeva va b.	2018	Ijara
20	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Sh.Ubaydullayev va b.	2018	Ijara

Millat mulki

Olma

UCh OLMA insoniyat tarixida tub burilishlar yasagan deyishadi: birinchisi, iblis vasvasasiga uchrab, taqiqlangan olma daraxti mevasidan totingan Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvillishi; ikkinchisi, atqoli fizik olim Isaak Nyutonning boshiga olma tushib, olimning "butun olam tortishish qonuni"ni yaratishi; uchinchisi, Stiv Jobsning "Apple" kompaniyasini tashkil etishi.

Chindan ham bular insoniyat tarixida tub burilish yasagan hodisalar. Ammo ularning birinchisini biroz tahrir qilishga to'g'ri keladi. Chunki "taqiqlangan olma" degan tushuncha Ovro'poda keyinchalik paydo bo'lgan. Muqaddas kitoblarda olma daraxti haqida gap yo'q. Islom olamidagi adabiyotlarda, xususan, Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" yoki Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarida "olma" o'rinda "bug'doy". "Har taqdir bila Odamg'a bug'doy yemakdin nahy bo'ldi", ya'ni "bug'doy yemak taqiqlandi", — deb yozadi Jazir Navoiy. — "Ba'zi uzum, ba'zi anjir debdurlar". Demak, uzum, anjir, deguvchilar ham bo'lgan, lekin, Navoiyga ko'ra, iblis Odam Ato va Momo Havoni aynan bug'doy yeyishga vasvasa qilgan.

Ikkinchidan, Nyutonning ham boshiga olma tushmagan, lekin olimning biografiyasida xabar berishicha, chindan ham, olim bog'da choy ichib o'tirarkan, daraxtdan uzilib tushgan olmani kuzatadi va bu hodisa uning mashhur qonunni kashf etishiga turtki bo'lganligini olimning o'zi gapirib beradi. Bu 1666-yil voqeasi.

Uchinchisi, Stiv Jobs nega o'z kompaniyasini "Olma" deb nomlagan? Bu yerda ham hech qanday sirlik yo'q. Aytishlaricha, Stiv Jobs o'z kompaniyasiga asos solishdan oldin "Atari" degan video'yinlar ishlab chiqaradigan kompaniyada ishlagan va alifbo bo'yicha tuzilgan ro'yxatlarda "Atari"dan oldinda bo'lishi uchun o'z kompaniyasini "Apple" deb nomlagan ekan.

Lekin olmaning insoniyat tarixida muhim o'rin tutganligi haqiqat, olma eng dastlabki "madaniylashtirilgan" mevalardan biri.

Ayatlik, apelsin, mandarin, kivi kabi mevalarning asl vatani Xitoy; pomidor, kartoshka, kakao kabi mahsulotlarning kelib chiqishi Amerika qit'asi hisoblansa, ma'lumotlarga ko'ra, olmaning vatani — Markaziy Osiyo, aynan, Qozog'iston va O'zbekiston hududi, Tyan-Shan tog'lari ekan. Shu bois bizda olma, sezbor kabi olma bilan bog'liq joy nomlari ko'p. Nafaqat bizda, balki boshqa hududlar, hatto Kanadada ham shunday joy nomlari bor ekan. Gapni dastlab uzoqdan — Kanadadan boshlasak.

Kanadadagi Olma shahri va Olma qishlog'i

Kanadada ko'pgina joy nomlari "birinchi millat", ya'ni yerli xalqlar tillaridan olingan: Ottawa, Toronto, Saskachevan, Kvebek, Ontario, Niagara, Monitoba, Abitibi, shuningdek, Kanada nomining o'zi ham. "Kanada" yerli xalq — mikmaklar tilidagi "qishloq" ma'nosidagi "kanata" so'zidan yasalgan. Kvebek provinsiyasidagi bir so'lim shahar esa — "Alma" deb ataladi. Nyu-Bransvik (New Brunswick) provinsiyasidagi bir qishloqning nomi ham "Alma". Ko'pchilik bu nomlar ham mahalliy xalqlar tilidan olingan, deb o'ylaydi. Ammo shaklan sig'za juda tanish tuyulayotgan bu nomlar, turkcha, to'g'rirog'i, qirim-tatarcha.

Qanday qilib turkiy tillardagi "olma" bu joylarga kelib qoldi? Bu savolga javob berish uchun Kanada emas, balki Qirim yarimorolida sodir bo'lgan voqealarni eslashimizga to'g'ri keladi.

O'tgan asrlarda eng ko'p va uzoq davom etgan urushlar Rossiya va Usmonli imperiyalari o'rtasida bo'lgan. Ovro'poda davlatlari o'z manfaatlaridan kelib chiqib, goh Rossiya bilan ittifoqchi bo'lib Usmonli davlatiga qarshi, goh usmonlilar bilan ittifoqchi bo'lib Rossiya qarshi urushlarda ishtirok etgan. Shunday urushlardan biri Qirim urushi deb tarixga

kirgan. 1853—1856-yillarda bo'lib o'tgan bu urushda Buyuk Britaniya, Fransiya, Usmonli davlati (va boshqalar) ittifoqchi bo'lib Rossiya-ga qarshi urush olib boradi va Qirimdagi Alma daryosi bo'yidagi jangda Rossiya o'z mag'lubiyatini tan oladi.

Bu urush aslida Usmonli va Rossiya emas, Fransiya va Rossiya o'rtasidagi urush edi. Urushning dastlabki sabablaridan biri o'sha paytdagi Fransiya va Rossiya imperatorlari: Napoleon III va Nikolay I o'rtasidagi shaxsiy kelishmovchilik, qolaversa, bonapartlar sulolasi asoschisi — Napoleon I mag'lubiyati uchun o'ch olish, revansh ham edi. Ikkinchi o'rinda Buyuk Britaniya manfaatlari va oxirgi o'rinda o'sha paytda kuchsizlanib qolgan Usmonli davlati manfaatlari turar edi.

Qirimdagi Alma (Olma) daryosi bo'yidagi ittifoqchi kuchlarning Rossiya ustidan g'alabasi Fransiya va Buyuk Britaniyada katta voqea sifatida ko'riladi. G'alaba sharafiga (balki Alma daryosi nomi ham fransuzlarga yoqib tushgandir) Parijdagi bir ko'priq va bir ko'chaga "Alma" nomi beriladi. Parij observatoriya-sida kashf etilgan bir asteroid ham "Alma" deb ataladi. Shuningdek, o'sha paytda Buyuk Britaniya va Fransiyaning koloniyalari bo'lgan bugungi Kanada yerlaridagi bir qishloq va shaharga ham "Alma" nomi beriladi.

Qirimdagi Olma daryosi

Quyuc olmazorlardan oqib o'tib, chitmol, suvida olmalarni ham oqizib kelganligi uchun bu daryo qirimliklar tomonidan "Alma" ("Olma") deb atalgan. Daryoning quyirig'ida Almatamaq degan qishloq ham bo'lgan (hozir-da "Песчаное"). Qaysi davrdan bu daryo "Alma" deb atalgani haqida ma'lumot yo'q, ammo Qirimda turkiy qavmlarning juda qadim zamonlardan yerkash boshlagani aniq. "Qora dengiz shimolidan Kaspiyga cho'zilgan yerlarda "Ovro'po xunlari" paydo bo'lgan davrdan (V asr) to chingiziyalargacha bu go'zal zamin ko'plab ko'chmanchi qavmlar hukmronligi yoki ta'siri ostida bo'ldi, ular turkiy qavmlar edi", — deb yozadi amerikalik turkolog P.B.Golden. VI asrda esa bu hududlar (istami xoqon davrida) Turk xoqonligi ta'siri ostida bo'lgan edi.

XIII asrdan Qirim yarimorolida kuman-qipchoqlar turfa etnik guruhlar ustidan hukmronlik qila boshlagan va ularning tili turfa tili elarlar o'rtasida, P.B.Golden ta'bir bilan aytganda, "lingua franca", ya'ni asosiy muloqot tili, xalqaro tili vazifasini o'tagan. XIII asr tarixchisi Ibn al-Asir o'sha davrdagi Qirimdagi Sudak shahrini qipchoqlar shahri, deb ataydi. Dengiz qirg'og'idagi shaharlarda tijorat bilan asosan qipchoqlar shug'ullangan.

Shu bois XIII asrda ovro'polik missionerlar kumanlarning (turk) tilini o'rganishga katta ahamiyat beradi va italyan va olmon tilchilari tomonidan "Codex Cumanicus" ("Kodeks kumanikus"), ya'ni "Kuman tili lug'ati" (yoki "Kuman tili risolasi") tuzila boshlaydi. "Codex Cumanicus"da izohlangan so'zlarning aksariyati, garchi bu lug'at yetti asr muqaddam tuzilgan bo'lsa-da, hozirgi o'zbek tilidagi so'zlarga juda yaqin, desam, mubolag'a bo'lmas. Menimcha, "Kodeks"ni "Eski qirim-tatar tili lug'ati", deyish ham mumkin. "Codex Cumanicus"da "olma" so'zi ham "alma" shaklida berilgan.

Kumanlar kimlar? O'sha davrlarda Qirim yarimoroli va unga tutash hududlarda yashagan barcha turkiy qavmlar (kumanlar, qunlar, bijanaklar, qarayimlar va h.k.) ovro'poliklar tomonidan kumanlar deb atalgan. O'rta asrlarda ular bilan yaqin aloqada bo'lgan majorlar (vengerlar) esa, kumanlarni "kun", (ko'plikda: "ku-

nok") deb bilgan. (Turkolog Y.A.Yevstigneyev "Куманы, кумы: кто они?" maqolasida kuman va qunlarning farqli jihatlarini mushohada etadi. Y.A.Yevstigneyevga ko'ra, kumanlar o'g'uzlarga, qunlar qipchoqlarga yaqin bo'lgan.)

XIII asrda Qirim yarimorolida Oltin O'rda hukmronligi o'rnatilgandan keyin kuman va qunlar etnos sifatida tugatildi, to'g'rirog'i, ular boshqa turkiy qavmlar tarkibiga singib ketadi. Kuman-qunlarning bir qismi chingiziyalar bosqinidan qochib majorlar (vengerlar) yeriga keladi va "kun" etnonimi faqat Majoristonda saqlanib qoladi. Undan oldin ham (XI asrda) qunlarning majorlarga kelib qo'shilganligi manbalarda qayd etilgan. Bugungi kunda majorlashib ketgan qunlar avlodlari hozir ham Majoristonning ikki viloyati: Nadkunshag (Nag'yakunshag) — "Katta qunlar diyori" va Kishkunshag (Kishkunshag) — "Kichik qunlar diyori") viloyatlarining asosiy aholisini tashkil etadi.

"Cho'ntagimda bir olma bor"

Majoriston poytaxti Budapesht shahridagi asosiy ko'chalardan birining nomi "Alma utca" ya'ni "Olma ko'chasi" ekan. Qolaversa, Majoristonning boshqa shaharlarida ham shu nomdagi ko'chalar bor, ammo buning Qirimdagi daryoga aloqasi yo'q, shunchaki, "alma" major tilida ham "olma"ni anglatadi. Major tilidagi turkiy so'zlar haqida gap ketganda, ko'pincha, ushbu misol keltiriladi: usmonli turkcha: "Cebimde bir elma var" ("Jebimde bir elma var"), majorcha: "Zsebemban alma van" ("Jebemban alma van") ya'ni, "cho'ntagimda bir olma bor". Majorlar ham o'zlarini "Ovro'po xunlari" avlodlari hisoblaydi. Turkolog, lingvist olim Anna Dibo "Ovro'po xunlari"dan keyin maydonga kelgan protobolgar yoki ko'hna bulg'or-turkiy tiliga oid so'z-o'zaklar eng ko'p saqlanib qolgan Ovro'podagi til bu — major tili", — deb yozadi. Bu bilan major tilidagi "alma" so'zi xunlardan qolgan, demochimasman. Bu so'z, yuqorida guvohi bo'lgan imizdek, qun-kuman, bijanak kabi majorlar tarkibiga qo'shilgan turkiy qavmlar orqali major tiliga o'tgan desak, to'g'rirog'i bo'ladi. Mazkur misolda keltirilgan turkcha "ceb", majorcha: "Zseb", ("jeb") — "cho'ntak") so'zi esa asli arabcha (جيب), ya'ni turk tiliga o'zlashgan arabizmdir. "Codex Cumanicus"ni kuzatganda guvohi bo'lish mumkinki, o'sha davrlardayoq Sharqiy Ovro'podagi turkiy qavmlar tillarida ko'plab forsiy, arabiy so'zlar ko'llanilgan. Major tilidagi "zseb", ("jeb") ham ana shunday turk tili orqali o'zlashgan arabizmlardan biridir. Mazkur misoldagi majorcha "van" ("bor") so'zi turkcha "var"ga shaklan o'xshab ketsa-da, fin-ugor tillariga mansub so'zdir.

"Olma"ning "ajdodlari"

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit-turk"da "alma" so'ziga shunday izoh beradi: "الما — olma (o'g'uzcha). Turklar الله الميلا deyidilar" (DLT. I. t. 150-b). "Devon"da boshqa o'rinda keltirilgan bir maqolda ham "olma" "almila" shaklida yozilgan: "Atasi, anasi achig' almila yesa, og'li, qizi tishi qamar", — ma'nosi: "ota-onasi nordon olma yesa, og'li-qizining tishi qamashadi". Bu maqol ota-ona qilmishining bolalarga ta'siri haqida. Demak, turklarning "almila" shakli eskirqoq, keyinchalik bu so'z o'g'uz shevasi ta'sirida "alma"ga aylangan bo'lishi mumkin.

Turkolog Anna Dibo bu so'zni "alimla" shaklida prototurk, ya'ni qadimgi turk tiliga tohar tili orqali hind-ovro'po tillaridan o'tgan so'zlar ro'yxatida keltiradi (A.B.Diboga. Тюрко-тохарская контактная лексика). A.Diboga ko'ra, hind-ovro'po tillarida "amel" — "mevali daraxt va uning mevasi, olma" — ma'nolarini bildirgan. "The English etymological dictionary"da "apple" so'zi etimologiyasi shunday tushuntiriladi: "apple" so'zi o'rta ingliz tilida "appel" shaklida, ko'hna ingliz tilida "æppel" shaklida bo'lgan. Bu esa o'z navbatida protohind-ovro'pocha "ab(e)l", "hzebl", "hzebol" shakllaridan kelib chiqqan. Yuqorida A.Dibodan keltirilgan iqtibosdagi "amel" hamda "ab(e)l" aslida bir so'z. "m" tovushining "b"ga aylanishi esa ko'pgina tillarda uchraydigan tabiiy hodisa. A.Dibo "alma" prototurk

tiliga tohar tilidan o'tgan, degan fikrini shunday tushuntiradi: "Предположительный источник тюркского слова должен был бы выглядеть, например, как "amil-la" "яблоко" (> alim-la с метатезой) — рефлекс и значение, в принципе возможные для тохарского", ya'ni undoshlarning almashinuvi (metateza) tohar tiliga xos xususiyat bo'lganligi uchun "amil-la" — "almila"ga aylangan, degan fikr bildiradi.

Shuningdek, "ab(e)l", "hzebl", "hzebol" shakllaridan fors-tojik tilidagi "seb", sankritcha "seva" shakllari ham kelib chiqqanini ko'rish mumkin.

Slavyan tillaridagi "yabloko", "yabluka", "jablko" shakllari — protoslavlan: "abl'ko", proto-balto-slavyan: "āblan" va o'z navbatida proto-hind-ovro'pocha: "ab(e)l", "hzebl", "hzebol"ga borib taqaladi. Shunday qilib, "olma", "seb", "apple", "yabloko" — bir o'zakdan bo'lib chiqadi.

Ovro'poning asosiy mevasi

"Apple" eski ingliz tilida "umuman meva" ma'nosini bildirgan, deyiladi "The English etymological dictionary"da. "Olma"ning qadimshunoslar tomonidan rekonstruksiya qilingan eng qadimgi: "abalika", "amarna", "(a) masl", "šamlu" shakllari ham, mutaxassislarga ko'ra, "meva" ma'nosida. "Olma"ning lotincha nomlanishi: "malum", "pomum" bo'lib, ular ham proto hind-ovro'pocha o'zakka borib taqaladi. Lotinchada ham bu so'zlar "olma" hamda "meva" ma'nolarini bildirgan. Fransuzcha "pomme" (talaffuzi: "pom") mazkur lotincha o'zakdan yasalgan, demakki, "pomme"ni ham "olma" so'zi bilan bir etimologiyaga ega, deyish mumkin. Fransuz tilida "pomme" so'zi ishtirokida boshqa meva nomlari ham yasalgan. Masalan, "pomme de terre" ("yer olmasi") — "kartoshka", "apelsin"ning dastlabki nomi fransuz tilida "pomme d'orange" bo'lgan, Fransiyaning ba'zi hududlarida "pomidor"ni "pomme d'amour" deb atashgan. Umuman, rus tilidagi "pomidor" so'zi bir paytlar Italiya yerlarida o'sgan "sariq pomidor"ga nisbatan ishlatilgan italyancha: "pomo d'oro" ("oltin olma") so'zidan kelib chiqqan, deyishadi. Shu kabi german tillaridagi: "apfelsien", "sinaasappel", "apfelsine" hamda ruscha "apelsin" ham aynan "Xitoy olmasi" ma'nosida bo'lib, ilk bor bu meva Ovro'poga portugal dengiz sayyohlari tomonidan Xitoydan keltirilgani uchun shunday atalgan. O'rta yer dengizi hududidagi ko'pgina tillarda esa bu meva "portugal" ma'nosida "portakal" (turk), "portokali" (yunon), "porteghal" (fors) kabi shakllarda uchraydi. "Apelsin"ning eski fransuzcha "pomme d'orange" nomi ham ba'zi slavyan tillarida: "pomerañe", "pomarañca", "pomarañca" shakllarida yashab kelmoqda. O'z navbatida "orange" ham sankritcha "apelsin daraxti" ma'nosidagi "naranga" so'ziga borib taqaladi, bu so'zning forschaga shakli "norang" bo'lgan, o'z navbatida, bu so'z arab tiliga, arab tilida "g" tovushini mavjud bo'lmaganligi bois, "noran" (نارنج) shaklida o'tgan va arab tili, Andalusiya orqali Ovro'poga "orange" shaklida kirib borgan.

Shuningdek, qadimgi yunon tilidagi "mélon" so'zi ham mazkur o'zakka borib taqalib, "olma" va "daraxtda o'sadigan meva" ma'nolarini bildirgan (hozirgi yunon va italyan tillarida: "mela" — "olma"). Bugungi kunda "melon" so'zi — ingliz, fransuz, ispan tillarida "qovun", inglizcha: "watermelon", fransuzcha: "melon d'eau" esa — "tarvuz"ni bildiradi. Demakki, ovro'po to'llaridagi hatto "tarvuz", "qovun" so'zlari ham "olma" so'ziga "qarindosh" ekan.

Alqissa, olma insoniyat tarixida markaziy o'rin tutgan mevalardan biridir. Shu bois qadimgi yunon miflaridan tortib, diniy-dunyoviy adabiyotlar, eraklarga: "oltin olma", "janjal olmasi", "sehrli olma", "taqiqlangan olma" kabi ramzlar ko'p uchraydi. Ma'lumotlarga ko'ra, olma daraxtining eng qadimgi yovvoyi turi hozir ham Markaziy Osiyo, Tyan-Shan tog'larida uchraydi, shu bois olmaning vatani Markaziy Osiyo hisoblanadi, shunday ekan, olmaning eng qadimgi nomi ham aynan Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

Abduvohid HAYIT

Qirg'izistondagi ta'sir jangi

O'zbekiston tashqi siyosatidagi eng ustuvor yo'nalish bu Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik va aloqalar mustahkamligidir. Shu nuqtayi nazardan yon qo'shnimiz Qirg'iziston Respublikasidagi hodisalarni barcha yurtdoshlarimiz katta qiziqish bilan kuzatib bormoqda.

Keyingi paytlarda mamlakatning sobiq prezidenti Almazbek Atambayevning daxlsizlik huquqidan mahrum etilib, qamoqqa olinishi, mamlakatda korruptsiyaga qarshi boshlangan urush respublikadagi siyosiy vaziyatni qizitib yubordi. Agar sud Atambayevni ilgari surilgan ayblovlar bo'yicha aybdor deb tan olsa, jinoiy ta'qib va umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llaniladi. Atambayevning o'zi ishini "siyosiy" va to'qima deb atadi. Qirg'izistonda katta ta'sir doirasiga ega bo'lgan Rossiya avvaliga sobiq prezidentdan dalsizlik maqomi olib tashlanishini mamlakatning ichki ishi deb atadi va vaziyatga aralashish niyatida emasligini bildirdi. Ammo ko'p o'tmay, Qirg'izistondagi siyosiy janjal katalashib ketishiga yo'l qo'yimlik maqsadida Kreml rahbariyati sobiq prezident Almazbek Atambayevni Moskvadagi muzokaralarga taklif etdi. Rossiya prezidenti Vladimir Putin Almazbek Atambayevni qabul qildi. "Hech qanday sir yo'q. Siz bilasiz, men har doim ham amaldagi, ham oliy mansabdand ketgan hamkasblarim bilan aloqalar uchun ochiqman. Ha, men haqiqatda Almazbek Sharshenovich bilan uchrashdim. Biz min-taqadagi va Qirg'izistondagi vaziyat to'g'risida gaplashdik", dedi Putin jurnalistlarning savoliga bergan javobida. Putin pozitsiyasi avvaldan yaxshi ma'lum. Rossiya Qirg'izistonni itifofchi, o'ziga yaqin davlat sifatida ko'radi. Ikki marotaba siyosiy silkinishlarni boshdan o'tkazgan mamlakatda uchunchi marta ham rangli inqilob yuz berishini istamaydi. Shuning barobarida Putin tomonlarni Qirg'iziston xalqining manfaatlarini yo'lida ziddiyatni to'xtatishga chaqirdi. Uning fikricha, mamlakat siyosiy barqarorlikka muhtoj, barcha amaldagi prezident atrofida birlashishi va unga davlatni rivojlantirishda yordam berishi kerak. Tashvishlarda yon bor axir. Qirg'izistonda 30 yil ichida 29 marta bosh vazir almashti. Bu qadar hukumat inqirozini tuzayoning hech bir mamlakat boshdan o'tkazmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston ham Qirg'izistondagi ziddiyatli voqealarning tinch yo'l bilan hal etilishi tarafdori bo'lgani holda, uning ichki ishlari-ga aralashishni istamaydi. Zero, mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyillarida ham O'zbekiston boshqa davlatlarning ichki ishlari-ga aralashmasligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8 avgust kuni Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan telefon orqali muloqot qildi. Muloqotda Qirg'izistonda tinchlik va barqarorlikni saqlash muhim ekani alohida qayd etildi. Qo'shni mamlakatdagi vaziyat amaldagi qonunchilik doirasida tez orada barqarorlashishiga umid bildirildi. Shundoq ham Afg'onistondagi urush tufayli mintaqaga xavf muqarrar bo'lib turgan bir sharoitda yana bir qaynoq nuqta paydo bo'lishini O'zbekiston istamaydi.

Endi Almazbek Atambayev bilan bog'liq mashmashlar tarixiga nazar solsak. Atambayev 2017-yilda hokimiyatni tinch yo'l bilan navbatdagi prezidentga topshirib ketgan birinchi davlat rahbari hisoblanadi. Qirg'iziston boshqaruvida siyosiy barqarorlikka erishish maqsadida islohot o'tkazgan bo'lib, bir shaxsning ikkinchi muddatga prezidentlikka saylanishini taqiqlovchi, olti yil muddatga saylanadigan qonun qabul qilindi. Shu bois turli takliflarga qaramay, Atambayev hokimiyatdan ketishini e'lon qildi. 2017-yil oktabrida bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida kelib chiqishi janublik bo'lgan Sooronbay Jeenbekov g'olib deb topildi. Saylov kam-

paniyasi vaqtida Atambayev Jeenbekovni qo'llab-quvvatladi. Amaldagi prezident va uning o'tmishdoshi o'rtasidagi ziddiyat yangi prezident o'z vakolatlarini bajarishga kirishganidan keyin boshlandi. Sobiq prezident Bishkekda o'tkazilgan mitinglarda merosxo'rini tanqid qildi. Natijada o'rtada nizo yuzaga keldi. Aslida mamlakatdagi ayrim doiralarda Atambayevni Qirg'izistonning taraqqiyotiga xalal bergan va korruptsiyaning kuchayishiga turtki bergan "siyosiy g'o'rlik"ning ramzi sifatida ko'rishardi. Ziddiyat shunga borib yetdiki, korruptsiyaga aloqadorlik ayblov bilan Atambayevning bir necha yaqin safdoshlari qamoqqa olindi. Prezident apparati huzuridagi sud islohoti va qonunchilik bo'limi mudiri Manasbek Arabayev hibsi etildi. Sapar Isakov va Jan-toro Satibaldiyevlarga korruptsiya ayblov qo'yildi. Ularning har ikkalasi Atambayev davrida bosh vazir bo'lib ishlagan. O'tgan yili bojxonaaning sobiq rahbari Adamkul Junusov va prezidentning sobiq maslahatchisi Ikromjon Ilyaminov qamoqqa olindi. Korruptsiyaning boshi Atambayevga borib taqalishi oydinlashgach, Qirg'iziston parlamenti mamlakatning sobiq prezidentlari javobgarlikka tortilishi mexanizmini ko'zda tutuvchi qonun loyihasini shu yil aprelida ma'qulladi. 16-mayda uni prezident imzoladi.

Yangi qonunga binoan, sobiq prezident mutlaq daxlsizlikka ega bo'lmaydi — uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun parlament o'ta og'ir jinoyat sodir etish ayblovini ilgari surishi, uni Bosh prokuratura tasdiqlashi kerak. Shunday bo'ldi ham. 2019-yil 1-iyulidan Jogorku Kenesh (parlament) deputatlari yozga ta'tilga ketdi. Ta'til oldidan so'nggi kunlar juda keskin kechdi. Deputatlar sobiq prezident Almazbek Atambayevga oltita ayblov, jumladan, korruptsiya, uyushgan jinoiy guruhlarni tuzish, lobbiizm, shuningdek, unga qarshi chiqqan siyosatchilar, jamoat vakillari va jurnalistlarga qarshi bosim va repressiyalar tashkil etish kabi ayblarni qo'yishdi. Respublika Bosh prokuraturasi "beshta punkt bo'yicha aybdor" tamg'asini bosgach, deputatlar ko'pchilik ovoz bilan Almazbek Atambayevni Qirg'iziston Respublikasining sobiq prezidenti imtiyozlaridan mahrum etdi. Eksper-tlar bu qarorni "huquqiy cheksizlik" deb atagan bo'lsa, sobiq prezident o'zini aybsiz deb hisoblaydi va hatto har bir harakatiga javob berishga tayyorligini ma'lum qildi.

Bundan tashqari, qabul qilingan qonunga ko'ra, sobiq prezident davlat hokimiyat organlarida maxsus davlat lavozimlarini, shuningdek, siyosiy partiyalarda mansabdor lavozimlarni egallamasligi yoki siyosiy partiyalar faoliyatida boshqa yo'l bilan ishtirok etmasligi kerak. Bu qonundan ko'rinib turibdiki, hokimiyat navbatdagi saylovda Almazbek Atambayevning prezidentlik saylovida ishtirok etishiga yo'l qo'yimchi emas. Ikkinchidan, ekspertlar aytayotganidek, Qirg'iziston kabi davlatlarda "bir qozonda ikki qo'chqor-niing boshi qaynamaydi". Shu paytgacha sobiq prezident ixtiyorida qolgan maqom, uning sotsial-demokratik partiya rahbarligida qolishi amaldagi siyosiy kuchlar hokimiyatiga soya solayotgandi. Mahalliy siyosiy tizimda prezidentlik mansabi korruptsiyaviy instrumentlar vositasida boyishga imkoniyat berardi, kontrabanda, afg'on narkotiklarining Tojikiston orqali tranzitidan, Xitoy, Turkiya, BAA mahsulotlarining katta eksportidan olinadigan yog'li daromad ayni yuqori martabali rasmiylar nazoratida bo'lgani achchiq haqiqat.

Uchinchidan, Jeenbekov mansub bo'lgan janubiy qirg'iz elitasi nazarida uning saylovda g'alaba qozonishi janub va shimolning davlat boshqaruvi va biznes sohasidagi doimiy raqobatida olgan qasosi hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur raqobat mahalliy siyosiy jarayonlarning mohiyati sanaladi: masalan, shimollik Asqar Akayev o'z vaqtida janublik Absamat Masaliyev o'rni egalladi, 2005-yili Akayevning ag'darilishi hokimiyatda janubiy klan vakili Qurmanbek Baqiyevning o'rmasib olishiga imkon berdi, inqilobdan keyingi davrda o'tkazilgan saylov 2011-yili shimollik Atambayevga yo'l ochdi. Bu o'yin mavjud markazdan qochuvchi tendensiyalarni chuqurlashtiradi, xolos. Qarama-qarshilik har qanday shaklda va har qanday natija bilan tugashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Qirg'izistonning to'rtinchi prezidenti o'z mamlakatidagi nazardan qolgan odamlar qatorini to'ldirdi, alalxulos, birinchi va ikkinchi prezidentlar allaqachon bu qatordan o'rin olib bo'lgandi. Qirg'izistondagi voqealar rivoji qanday tus olmasin, uning demokratik imijiga jiddiy zarba berib bo'lmaydi. Bu tomondan Sooronbay Jeenbekov 2017-yilning noyabridan beri toliqtiruvchi jangdan xalos bo'ldi. Atambayevning parlament deputatlarini "mishqiqlar" deb atashi ham deputatlarining unga qarshi jur'atini oshirib yubordi. Bunga javoban parlament maxsus komissiya tuzib, unga nisbatan qator ayblovlarini ilgari surdi.

To'rtinchidan, 2013-yili uzoq muddatli qamoq jazosini o'tayotgan qonundagi o'g'ri Aziz Batukayevning tuzalmas xastalik bilan og'riyotgan haqidagi soxta hujjatlar asosida qo'yib yuborilishi va uning Rossiya-ga (Batukayev etnik chechen bo'lib, tarixiy vatani Chechenistonga charter reys bilan jo'nab ketgan) qochirib yuborilishi Atambayev va Jeenbekov o'rtasidagi bahsarga sabab bo'lgan yana bir omil bo'ldi. Jinoiy avtoritetning qochishi uzoq vaqt Qirg'izistondagi bosh siyosiy mavzulardan biriga aylandi. Prezident mamlakatda yuz berayotgan barcha narsa uchun javobgar ekan, o'sha paytda davlat rahbari bo'lgan Atambayev bu jinoiy hodisa uchun javobgar bo'lishi kerak, degan qarashlar ham yo'q emas. Buni Atambayevning o'zi ham yaxshi tushunadi, shu bois jurnalistlarga bergan interv'yulari-niing birida qochib ketgan o'g'riboshini doimiy ro'yxatdan o'tgan joyiga qaytarish haqida Rossiya rahbariyatiga murojaat qilganini yashirmadi. Biroq bu urinishlar endi behuda edi. Moskva bu chaqiriqlarni eshitmadi, bizga taalluqli emas, deb qo'ya qoldi. Atambayev bu masalada Checheniston rahbari Ramzon Qodirovga murojaat qilganini yoki yo'q, bu noma'lum, ammo qonundagi o'g'rinig o'g'oyib bo'lishi nafaqat 6 millionli Qirg'izistondagi siyosiy muhitni to'zg'itib yubordi, hatto sobiq prezidentni umrbod qamoq jazosiga olib kelishi mumkin bo'lgan dramaga olib keldi. Hatto 8-avgust kuni o'tkazilgan maxsus operatsiyaning birinchi bosqichida Atambayevning Qo'ytosh qishlog'ida uyi atrofi va ichkarisidagi maydon yaxshi o'rganilmagani, xatolarga yo'l qo'yil-gani bois bir kishi halok bo'ldi, 100 ga yaqin kishi yaralandi. Boz ustiga, "Alfa"ning olti nafar jangchisi mudofaalanuvchilar tomonidan asirga olindi, kaltaklandi va qurolsizlantirildi. Bu chinakamiga urush edi. Qirg'iziston kuchishlar tizimlari dastlab uni boy berdi. Rasmiy buni ochiq tan oldi. Ichki ishlar vaziri va Milliy xavfsizlik davlat qo'mitasi rahbarlari 8-avgust kuni ertalab iste'foga chiqishga tayyorliklarini bildirdi. Biroq prezident Jeenbekov arizani qabul qilishdan bosh tortdi. Ishg'olni davom ettirishga qaror qilindi. 8-avgust kuni ertalab Qirg'iz davlatining sobiq rahbari taslim bo'ldi. Atam-

bayev tarafdorlari osonlikcha taslim bo'lgani yo'q. Qo'ytoshda ham, Bishkekda ham ko'zi qonga to'lgan namoyishchilarning beboshlik maxsus vositalar yordamida bostirildi. Boshqa yo'li ham yo'q edi. Chunki ikkita inqilobni boshdan kechirgan Bishkek Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo davlatlar hukumat boshliqlarini kutib olishga hozirlik ko'rayotgandi. Biroq uchunchi inqilobga yashil chiroq yonmadi. Odamlar inqilob dohiylarining safsatalari va va'dalaridan charchab bo'lgan. Gohida "lola", gohida "opium" nomi bilan atalgan inqiloblar ommaviy talon-torajlik, boshboshdoqlik, zo'ravonlik va qarochilik bilan tugagan bugun hech kimga sir emas. Bu harakatlardan oddiy odamlar aziyat chekdi, xolos. Afsuski, mamlakat o'sha mas'uliyatsiz siyosat girdobidan to'la qutula olgani yo'q.

Qaynoqqon va qiziqqon qirg'iz xalqini endi mitinglarga chorlash, ishonitirish oson bo'lmay qoldi. Boz ustiga aynan Atambayev janoblari olti yil mobaynida barqarorlik o'rnatdi.

Qizig'i shundaki, prezidentlik saylovlarida Almazbek Atambayev nomzod Sooronbay Jeenbekovni qo'llab-quvvatlagan, "Ozodlik" radiosiga bergan interv'yusida o'z qarorini "inson xatoga yo'l qo'yib turishi" bilan izohladi. "Payg'ambarimiz men ham insonman va men ham xato qilaman, deb aytgan. Men payg'ambar emasman. Atrofimdagi do'stlarimga qarang... Eng yaqin do'stim Jeenbekov edi, ikkinchisi — Iso Omurkulov. Biroq men odamlarning harakatlari-ni oldindan ko'ra bilmadim", dedi u. Agar, ma'lumotlarga tayanilsa, Sooronbay Jeenbekov katta siyosat sari yo'lini oddiy o'qituvchilikdan boshlagan. 2007-yili Qirg'iziston qishloq xo'jaligi vaziri etib tayinlangan. 2010-yilgi inqilob ortidan, 5 yil o'sh viloyatiga hokimlik qilgan. Keyin Almazbek Atambayev uni Bishkekka chaqirib olgan. Unga avvaliga kadrlar masalasi-ni ishonib topshirgan, 2016-yil mart oyida prezident ma'muriyati rahbarining birinchi muovini etib tayinlagan. Oradan boryo'g'i bir oy o'tib, Sooronbay Jeenbekov Qirg'iziston Bosh vaziri darajasiga ko'tarildi. Prezident saylovida o'z nomzodini ilgari surish uchun avgust oyida Bosh vazirlikdan iste'fo bergan. Uning butun siyosiy karyerasi Almazbek Atambayev nomi bilan chambarchas bog'liq. Xabarlariga ko'ra, O'shda Jeenbekovlar klani katta qudratga ega. Ma'lum bo'lishicha, ukasi Asilbek Jeenbekov 2011–2016-yillar oraliqida Qirg'iziston parlamenti spikeri bo'lgan. Akasi Jusupbek Sharipov Qirg'izistonning Quvaytdagi elchisi, marhum akasi Kantoro Sharipov Jalolobod shahridagi Moliya instituti rektori bo'lgan.

Atambayev qanday harakatlarda ayblanmoqda?

Bosh prokuror Jamshitovning so'zlariga ko'ra, sobiq prezident Atambayevga besh epizod bo'yicha ayblov qo'yilishi mumkin. U gap Qo'ytosh qishlog'ida yer uchastkalari-ni qonunoniy egallanishi, jinoiy avtoritet Aziz Batukayevning qonunga qan ravishda ozod etilishi, Bishkek issiqlik elektr stansiyasi modernizatsiyasi bo'yicha korruptsiya ishi va unga qonunoniy tarzda ko'mir yetkazib berilishi hamda tadbirkor Subixi Parxati ishtirokidagi korruptsiya fakti haqida borayotganini ta'kidladi. Avvaliga guvoh sifatida ko'rilgan Almazbek Atambayev Qo'ytoshdagi tartibsizliklar va bir harbiy o'limi ortidan endi og'ir jinoyatlarda ayblanishi va umrbod qamoq jazosiga tortilishi mumkin.

Abduvali SOYIBNAZAROV

Begjanova Gulrux Baxtiyarovnaning 02.00.07 — Kompozitsion, lok-bo'yov va rezina materiallari kimyosi va texnologiyasi va 02.00.15 — Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi ixtisosliklari bo'yicha "Texnogen chiqindilar asosida yangi kompozitsion qo'shimchalarni va ulardan foydalanib yuqori samarador sementlarni ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Fan va taraqqiyot" DUK huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K.T.03.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, 7-"A" uy.
Tel/faks: (71) 246-39-28, 227-12-73; e-mail: guptf@inbox.uz

Raximova Gulrux Qo'rqmasovnaning 15.00.02 — Farmatsevtik kimyo va farmakognosiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda o'sadigan tor bargli Ivan-choy o'simligini farmakognostik o'rganish" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

G'affarova Gulchehra G'ulamjanovnaning 09.00.01 — Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha "Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zMUNing Ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rektor@nuu.uz

Nazarov Nasriddin Ataqulovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Markaziy Osiyo polietnik sotsiymida millatlararo munosabatlar takomillashuvining falsafiy-funksional tadqiqi" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zMUNing Ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rektor@nuu.uz

Normurodova Qunduz Tog'ayevnaning 03.00.12 — Biotexnologiya ixtisosligi bo'yicha "Krazmal tutuvchi xomashyolardan etanol olish biotexnologiyasini takomillash-trish" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Mikrobiologiya instituti va O'zbekiston Milliy universiteti huzurida-gi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.B.38.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 22-avgust kuni soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"B" uy.
Tel/faks: (71) 241-92-28, 241-71-98; e-mail: microbio@academy.uz

Ashurov Sherov Ermatovichning 14.00.40 — Shoshilinch tibbiyot ixtisosligi bo'yicha "O'n ikki barmoqli ichak yarasi teshilishida xirurgik davolashga differensiallash-gan yondashuv" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) disser-tatsiyasining himoyasi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.02.2018.Tib.63.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Kichik halqa yo'li, 2-uy, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi majlislar zali.
Tel/faks: (78) 150-46-00, 150-46-05; e-mail: uzmedicine@mail.ru

Jaxongirov Ilmorjon Jahongirjon o'g'lining 08.00.02 — Makroiqtisodiyot ixti-sosligi bo'yicha "Milliy iqtisodiyotni innovatsion-investitsion rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) fal-safa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universi-teti va O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 22-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-01-49; e-mail: tdii@tdii.uz

Abdullayev Zafarjon Alijonovichning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "Tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillash-tirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va O'zbekiston Respublikasi Bank-moli-ya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DS.27.06.2017.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 22-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-01-49; e-mail: tdii@tdii.uz

Nazirova Guzal Malikovnaning 13.00.08 — Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazari-yasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Maktabgacha ta'lim muassasalarini rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hu-zuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.29.12.2018.Ped.80.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 22-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 17-uy.
Tel/faks: (71) 207-04-08, (78) 150-01-27; e-mail: mtmmalaka.oshirish@exat.uz

Xoshimov Xikmatulla Boqijonovichning 07.00.06 — Arxeologiya ixtisosligi bo'yicha "Oyoqog'itma makoni — ilk neolit davri tosh industriyasi" mavzusida-gi (tarix fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoya-si O'zR FA Arxeologik tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tar.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 30-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100079, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy.
Tel/faks: (71) 233-46-02; e-mail: uzarchae@academy.uz

Xolmatov Normaxammad O'rozovichning 07.00.06 — Arxeologiya ixtisosligi bo'yicha "Sazag'on madaniyati va uning O'zbekiston neolit davrida tutgan o'rni" mavzusidagi (tarix fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoya-si O'zR FA Arxeologik tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tar.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 30-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100079, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy.
Tel/faks: (71) 233-46-02; e-mail: uzarchae@academy.uz

Rejаметова Nilufar Ilxamovnaning 13.00.08 — Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "O'zbek xalq cholg'ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish" mavzusida-gi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Maktabgacha ta'lim muassasalarini rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.29.12.2018.Ped.80.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 22-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 17-uy. Tel/faks: (71) 207-04-08, 150-01-27; e-mail: mtmmalaka.oshirish@exat.uz

Abdumalikov Jasurbek Kuchkarovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixti-sosligi bo'yicha "Tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'o'za o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga organomineral chiqindilardan tayyorlangan komposlarning ta'siri" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 22-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI.
Tel/faks: (95) 142-22-36, (78) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz

Alimardonov Olim Tuyliyevichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Kartoshka hosildorligiga turli qator oraliqlari va parvarishlash tadbirlarining ta'siri" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa dok-tori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 22-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI.
Tel/faks: (95) 142-22-36, (78) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz

Anvarov Xikmat Erkinovichning 14.00.40 — Shoshilinch tibbiyot ixtisosligi bo'yicha "Jigar exinokokkozining urgent asoratlarini tashxis va davolashni takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.02.2018.Tib.63.01 raqam-li ilmiy kengashning 2019-yil 23-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Kichik halqa yo'li, 2-uy, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi, majlislar zali.
Tel/faks: (78) 150-46-00, 150-46-05; e-mail: uzmedicine@mail.ru

Nasirdinova Yorg'inoy Abdumuharrovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyot-shunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik ixtisosligi bo'yicha "O'zbek folklori va mumtoz adabiyoti namunalarini fransuz tilida (Remi Dor tar-jimalari asosida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Aripov Zakir Tahirovichning 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabi-yoti ixtisosligi bo'yicha "Arab musiqa terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O'rta Osiyo olimlarining musiqa-shunoslikka oid asarlari asosida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Umr — saboq

Asling kabi ko'rin!

— Dugonam Zulxumor esingdami? — deya gap boshladi Saida sherigi Zarnigorga. — Bilsang, u juda chatoq chiqdi-da. Hammani dog'da qoldirib, chuv tushirganini aytmaysanmi? Biram kekkeygan, biram gerdayganki, nimasiga keriladi, hayronman. Qachon qarama, darsga kech keladi, xohlasi kelmaydi ham. Nima emish, yiqqan pullarini muhtojlarga tarqatib, ularni xursand qilarkan. Uning cho'pchaklariga mendan boshqa kim ham ishonardi. Boshqalardan doimo pul so'raganini tushunolmayman. Qahramon bo'lgisi kelsa, xayr-sadaga so'raganiga balo bormi? Bularning bari yolg'on! Zulxumor o'taketgan yolg'onchi, xudbin. Bizdan olgan pullarini kim bilsin, nima qilyapti? Ko'rmaysanmi, egnidagi kiyimlarini. Ana, bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi, — dedi Saida qarshisidan chiqib qolgan Zulxumorga ensasini qotirib qararkan.

— Iya, Saida, seni ko'rib qolganim zo'r bo'ldi-da! — deb quvongan dugonasi u bilan ko'rishdi. — Bugun ham darsga borolmadim. Ishlarim biroz o'xshamayapti. Xo'sh, o'qishlar qalay, yo'qlama bo'lmadimi?

— Voy, mening saxiy o'rtog'im-ey. Shularni o'ylab siqilib yuribsanmi? Sen shunday savob ish qilyapsanki, bu hamaning ham qo'ldan kelavermaydi, — dedi Saida Zulxumorga soxta tabassum bilan boqib. — Senga juda havas qilaman. Xudo xohlasa, senga qo'shilib, ko'pdan-ko'p savobga erishmoqchiman.

Zarnigor angrayib qoldi. Bir necha daqiqa avval u haqida qanday yomon gaplarni aytayotgan edi. Endi esa... U butunlay boshqa qiyofaga kirib olgan suhatdoshiga qarab hech narsaga tushunmas edi. Zulxumor ketganidan so'ng:

— Bu nima qilganing, axir? — dedi. — Orqasidan yomonlab, o'ziga maqtaganing nimasi? Qaysi gapingga ishonish kerak?

— Yo'g'e, nimalar deyapsan? Uni qanday yaxshi ko'rishim mumkin? Tirjayib yolg'on gapirishini qara, — dedi Saida.

Tutaqib ketgan Zarnigor vajohat bilan: — Bunchalar ikkiyuzlamachiligingni bilmagan ekanman. Uni ko'rdim. Samimiy qizligi yuz-ko'zidan bilinib turibdi. O'z do'stingni soding-a! Senga o'z sirini ishonib aytgan dugonangning ustiga mag'zava ag'darishning xudbinlik emasmi? Niqobingni yech, — dedi va yuz o'girib jo'nadi.

— Qadrli dugonajonim Zulxumor! Tavallud ayyoming bilan seni chin qalbindan qutayman. Seni oramizdagi eng zukko va yaxshi qiz deb bilamiz. Doimo beg'uborligingcha qol! Ezgu tilaklarim senga! — dedi Saida dugonasi bag'riga bosib tabriklar.

Hamma qizlar tabriklab bo'lgach, Zulxumor mahnun bo'lib dedi:

— Azizlarim, barchangizga rahmat. Juda baxtiyorman. Meni eng ko'p quvontirgani yaqin dugonam Saida menga xayrixohligi. Kecha tush ko'ribman. Bir guruh qizlar meni g'iybat qilib turgan paytda, Saida kelib mening tarafimni olibdi. Shunda haligi g'iybatchilar xijolat bo'lib qolibdi...

Saidaning ikki yuzi olovdek yondi...

Irodabonu AVVALBOYEVA

Turmush chorrahalarda

Otamning o'g'itlari

El bilan bo'l, bolam

O'qishni tamomlagach, meni uzoq tumanga jo'natishdi. Ertalab ketib, kechqurun qaytaman. Transport qatnovi yaxshi emas. Tuman markaziga bitta avtobus qatnaydi, xolos. Unga ilinmagan yo'lovchi boshqa ulovda ketishiga to'g'ri keladi.

Ishdan qaytsam, otam rahmatli yig'lab o'tiribdi. Tepa sochim tikka bo'ldi. "Nima gap?" deb xotinimga yuzlandim.

— Ma'rakadan qaytayotib yiqilgan, mashinada olib kelishdi.

Otamdan hol-ahvol so'radim. Darrov oyoq-qo'lini ushlab ko'rib, shilingan joyiga malham qo'ydim.

— Eh otam-a, otam. Nima qilardingiz ma'rakaga borib, uйда tinchgina o'tirsangiz bo'lmaydimi? — deyman jig'ibiyronim chiqib.

— Ey o'g'lim, odam bo'lish qiyin, bilsang. Ma'rakaga borma deysan, ko'rimasang kelmadi, deb o'pkalaydi. Oldingda to'y-u tomoshang turibdi, ko'rarman, odamning ko'payib ketishini! — dedi otam. — Keyin qo'shib qo'ydi: — Bugundan men yo'qman, endi borar-kelarga yaramayman. Bu yog'i sening gardaningda! Elga aralashib yur, bola!

— Xo'p, xo'p, — deyman otamni tinchlantirib. — Ishga kim boradi?

— Bu ishingni qo'y, erta ketib, kech kelasan! Oyliging yo'likiradan ortmayapti. Ana, maktabga ishga kir. Qo'lingda diploming bor. Savodning binoyidek. Karim jo'rang ishlayapti-ku. Ham mahallaga aralashasan, ham bola-chaqangning yonida bo'lasan. Kuninga mahalla-ko'y yaraydi. Rivoyat qilishlaricha, Xiva xonlaridan biri shahar aylanib yursa, mahalla jarchisi "Falonchilikka to'ygali" deb baqirib yurgan ekan. Shunda xon "Hov jarchi, to'ygali meni aytmayapsan-ku?" desa, xabarchi "Xon og'a, mahallaga aralashmaganingiz uchun sizni aytmadim", degan ekan. Shundan keyin xon odamlarga osh berib, mahalladoshlari qabatiga kiribdi. Bu gapning mag'zini chaq!

Otamning gapidan xulosa chiqarib, ishimni qishloq maktabiga ko'chirdim.

Qo'shnilarining "san-man"i

Ollabergan qo'shnimiz bo'ladi, yetimlikda ulg'aygan. Qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'yning yordami bilan uylandi. Mahallaning "o'g'li" bo'lgani bois hamma uni yaxshi ko'rar, ro'zg'orida kam-ko'sti bormi yoki hashar-pasharmi, darhol ko'maklashamiz. Ollabergan ham kimki bir yumushga aytdi, deguncha beminat xizmat qiladi. Kelin hamqishlog'imiz Abdurahmon akaning qizi. Ular o'g'il-qizi bo'lishdi. Ollabergan xotini bilan kelisholmas, uyidan janjal arimasdi. Xorazmcha aytganda, xotini "og'zi ochiq", dilozor bir juvon, deb eshitdik. U erni er o'mida ko'rmas, hadeb yetimligini yuziga solib, katta ketardi. Kattaxillik erga yoqarmidi? Kelinning uyiga ketib qolgan paytlari ham ko'p bo'ldi. Goh mahalla, goho otam aralashib, Abdurahmon akaga ming bir tavallot qilib, kelinni olib kelib qo'yishardi.

Oilada yana janjal. Hovlida shovqin-suron. Ollabergan akaning uyi shundoq bog'devorimizdan ko'rinib turadi. Otam birpas ishini to'xtatib, o'sha yoqqa quloq tutadi. Men ham er-xotinning biri-qo'yib, biri shang'illashiga guvohman. Ollabergan-

ning ayoli qarindoshiga to'yida katta Xiva gilami sovg'a qilmoqchi. Uning gilam sotib olishga puli yo'q. Xotin buni tushunmaydi, tushunishni istamaydi ham. Erining topgani bola-chaqadan ortmasa. Shovqin tinmagach, qo'ni-qo'shnilar yugurib chiqdi. Otamga "Siz ham boring!" dedim qo'shnimizning kirganini ko'rib. Otam birpas o'ylanib turdi-da: "Er-xotinning orasiga esi ketgan tushadi", deya pinagini ham buzmadi. Ammo Quronboy aka bog'devorning narigi tomonida turib, otamni chaqirgach, istamaygina odimladi. Qo'ni-qo'shnining aralashuvi ham molparast xotiga kor qilmadi. "O'laman, Sattor, gilam!" deb turib oldi. Arazlab, otasinikiga ketdi.

Oradan oylar o'tdi. Ollaberganning xotidan ko'ngli sovgan shekilli, loqaq ortidan bir marta ham izlab bormadi. Uyini qulflab, tomorqasini bizga topshirdi-da, Rossiya-ga ketib qoldi. Kech kuzda musofirlikdan qaytgan qo'shnimiz tomorqasidagi biz ekan ekinlar pishib yetilganini, faqat yig'ib-terib olish qolganini ko'rib, boshi osmonga yetdi.

— Ota, ekinlar yetilibdi, yig'ishtirib olinglar, isrof bo'lmasin! — dedi u.

— E, o'g'lim, o'zingga buyursin! Kelinni olib kelgin. Bolalarining rizqi!

— Undan ko'nglim juda sovgan...

— Ikki qorako'zning uvolidan qo'rq! Borgin, agar bosh tortsa, o'zim aralashaman.

Xullas, otam Ollaberganni qo'yar-da-qo'ymay qaynotasinikiga jo'natdi. Kechqurun choy ichib o'tirsak, u bo'shashib kirib keldi:

— Ko'nmadi, ota, qaynotam sizni kelsin, deyapti. Kallasiz xotin, degan gapingizni bayroq qilib olishibdi. Kallam bormi-yo'qmi, topib bersin, keyin boraman, deyayotganmish xotinim.

Otam soholini silab, o'ylanib qoldi, aytgan gapini tahlil qildi shekilli.

— Tirnoq orasidan kir qidirmasin, til — besuyak narsa, jahl ustida aytgan aytgandirman, — dedi otam ensasi qotib. — Endi kechirim so'rab, kelinni olib kelamiz-da...

Ertasi kuni Ollabergan ikkovi Abdurahmonnikiga qarab odimladi.

— Matmurod, o'zing yaxshi odamsan-ku, ammo tiling yomon, — debdi dabdurdustdan Abdurahmon aka otamga zarda qilib.

Nima qilasan, er-xotinning orasiga tushib. Nima, sen kallali, u kallasiz bo'ldimi? Nima, qizimning esi pastmi?

— Mulla Abdurahmon, sen qadrdonimsan! Shu paytgacha san-manga bormadik. Agar mendan o'tgan bo'lsa kechir, sen ham kechir, qizim! Bularning oilasini saqlashimiz kerak. Norasidalar yetim qolmasin! — debdi otam past tushib.

Abdurahmon domla uzrdan sal yumshadimi yoki nevaralarini boqib o'tirish jo'nga tekkanmi, kuyovga ancha tanbeh berib, qizini qo'shib jo'natdi.

Ollabergan xotini bilan yashay boshladi. Bir qish, bir yoz o'tdi. Er yana Rossiya-da ishlab keldi. Ammo baribir er-xotinning "moshi pishmadi". Keyinchalik rosmaga ajrashishdi. Ollabergan yuvoshgina juvonga uylandi. Sobiq ayoli "Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramas", deb ikki norasidani Ollaberganga tashlab, shaharlik xotini o'lgan bo'yachchaga tegib ketdi. Tilining dastidan bu er qolib, uchunchi, to'rtinchilarni ham "ko'rdi". Ammo baxti ochilmadi. Axiyri yana otasinikiga qaytib keldi.

Bir kuni Abdurahmon akaning qiziga qaratib: "Matmurod to'g'ri aytybdi, rostdan ham kallasiz ayol ekanсан" degan dashnomini eshitib qoldim...

Sobir mayda

Sobir mayda mansabdor yoki boy emas, oddiy bir odam. O'g'li qatori bo'lsam-da, Sobir aka biznikiga tez-tez kelar, men ham unikaiga borib turardim. Bordi-keldimizni sezgan otam bir kuni:

— Yangi do'st topibsanmi? — deb o'smoqchiladi.

— Ha endi, ish yuzasidan... — dedim chaynalib.

— Kim bilan osh-qatiq bo'lishni bil, bola! Qadamingni o'ylab bos! — dedi sal jahl aralash.

Yursam ham, tursam ham otamning dakkisi qulog'im ostidan ketmasdi. Keyinchalik eshitsam, Sobir maydaning hasadgo'ylik, baxillik, chaqimchilik odati bor ekan. Behuda "mayda" deyishmagan ekan-da.

Xudo ishimni o'nglab, yildan yilga omadim yurisha boshladi. U kishi menga yomonlik qilmadi, ammo har gal suhatlashsak, ichida nimadir g'imirlayotgandek tuyulardi. Sinchiklab kuzatsam, undagi bu "xislat" farzandlariga ham o'tgan ekan. Sobir akaning bir o'g'li yo'l patrul xizmatida ishlardi. Qishloqda obro'si yo'q, hisobi. Sababi, u mahalladagi haydovchilarni hamkasblariga "sotar" ekan. To'y-hashamda bir-ikki piyola ichganni ko'rsa, darhol do'stlariga qo'ng'iroq qilib, mashinaning davlat raqamini berar, shu bilan tayyor "o'lja" qo'lga tushar ekan. Buni sezib qolgan haydovchilar Sobir maydaning o'g'lini bo'ralab so'karkan.

Otam Sobir maydani nega yomon ko'rar ekan-a? Sinab ko'rmog'chi bo'lib, do'stimiz bilan reja tuzdik. Uzoqroqda do'stimnikida ziyofat uyushtirib, Sobir akani ham chaqirdik. U o'g'li bilan mashinada keldi. Mehmondorchilik quyuq bo'ldi. Aroq suvdai "oqdi". Sobir aka ham "yaxshigina" oldi. Kayfi oshdi. Men ham "tuzukkina" ichdim. Ora-sirada "Jo'ralar, menga ko'p bermanglar, ruldaman!", deb qo'yaman. Menga atalgan shishaga oddiy suv solib qo'yilganini ota-bola payqamadiyam. O'zimni kayfi oshganday tutyapman. Ishqilib, rolni qoyilmaqom qilib o'ynadim.

Sobir aka bilan o'g'li ertaroq qo'zg'al-di, birpasdan keyin biz. Qishloqning ilon izi yo'ldan ketyapmiz. Yarim tun. Atrof zimiston. Uyga o'zgina qolganda, muylilikda ikki organ xodimi mashinaning oldiga chiqib to'xtash ishorasini berdi. Rulni chetga burdim. Militsionerning biri kelib, o'zini tanishtirdi. Pastga tushdim.

— Iye, iye, Umroq aka, sizmisiz? — deb ikkinchi militsioner kelib meni quchoqladi. — Sizni nima jin urdi, nega ichib mashina haydab yuribsiz?

— Otoboy, senmisin? — dedim haligi yigit bilan ko'rishib. Sherigi hayron. Otoboy shahardagi katta ammanni o'g'li ekanini u qayoqdan ham bilsin!

— Kim aytdi senga, meni aroq ichdi, deb. Bilasan, men ichsam, umuman mashina haydamayman. Mana, qara kayfim yo'q. Ishonmasang, do'xtirga olib borishing mumkin, — dedim.

— Men ham shunga hayronman-da, doyi. Siz hozir g'irt mast bo'lishingiz kerak edi.

— Xabarlarga ko'ra degin, — dedim bamaylixotir kulib. — Kim "sotganini" aytmasang ham bilaman, indamay qo'yaver. Keyinchalik shaharga borganimda, ammanni o'g'liga ziyofat "senarij" sini aytib berdim. Kulgidan qotib qoldi. Haqiqatan ham, meni o'shalar "sotgan" ekan. Obbo, pismiqliq Sobir mayda-ye. Otam to'g'ri aytgan ekan: "Indamasdan is chiqadi".

Boltaboy MUHAMMAD QURBON

Xorazm viloyati

YULDUZLARNING YANGI TURI KASHF ETILDI

Astronomlar koinotda juda kichik va qaynoq mitti yulduzni aniqladi. Bir necha daqiqalik davriylikda millatlaydigan ushbu osmon jismi yulduzlarning avval fanga ma'lum bo'lmagan yangi turi bo'lishi mumkinligi aytilmoqda, deb yozdi "The Astrophysical Journal Letters".

Bu turdagi yulduzlarni olimlar "qaynoq submitti pulsator" (hot subdwarf pulsators) deb nomladi. Hozir ular 2017-yilda kashf etilgan boshqa turdagi yulduzlar — yuqori amplitudali moviy pulsatorlarning qardoshi bo'lishi mumkinligi taxmin qilinmoqda.

— Mazkur yulduzlarning g'aroyibli ularning pulsatsiyasi chastotasi va kuchida, — deb tushuntirdi Santa-Barbaradagi Kaliforniya universiteti Nazariy fizika instituti olimi Tomas Kepfer.



o'tkazilgan tahlil natijalari astronomlar submittilarning mutlaqo yangi turini kashf etganini ko'rsatdi.

Aytilishlaricha, submitti yulduzlar favqulodda qiziq obyektlar bo'lib, ularning o'lchami juda kichik — taxminan Quyosh hajmining 10 foiziga teng. Ammo ular




katta zichlikka ega bo'lib, unda Quyosh og'irligining 20 foizidan 50 foizigacha bo'lgan massa jamlangan. Boz ustiga, ulardagi harorat nihoyatda baland bo'lib, 20 ming K.dan 40 ming K.gacha boradi.

Hozir olimlar yangi turdagi yulduzlarning boshqa xususiyatlarini o'rganmoqda.

ZILZILALARGA OYNING YERDAN UZOQLASHAYOTGANI SABAB(MI)?

NASA mutaxassisi Metyu Fank reaktiv harakatlar laboratoriyasida o'tkazgan tadqiqotlari asosida Oyning Yerdan uzoqlashayotgani sayyoramiz aylanishining sekinlashishiga, oqibatda, kuchli va davomli zilzilalarga sabab bo'layotganini ma'lum qildi, deb xabar berdi "Korrespondent.net".



Olim so'nggi vaqtlarda Oy har yili Yerdan 4 santimetr uzoqlashayotgani, buning oqibatida Yer aylanishi tezligi pasayib, kuchli zilzilalar soni ortib borayotganidan xavotirda.

1900-yildan keyin sodir bo'lgan 7 va undan ortiq magnitudali yer silkinishlarini o'rganan Bouderdagi Kolarado hamda Mizuldagi Montana universiteti olimlari XX asr boshidan buyon sayyoramizda 25 dan 30 tagacha zilzilalar bo'lgan 5 ta davrni aniqladi. Qizig'i, ularning barchasida Yer aylanish tezligi kamaygani kuzatilgan.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

"Do'stlik" g'olib chiqdi

Andijon shahridagi "Barkamol avlod" stadionida "Charm to'p" hamda "Futbolimiz kelajagi — 2019" an'anaviy futbol musobaqalarining viloyat bosqichi final o'yinlari bo'lib o'tdi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 28 yilligi bayramiga bag'ishlab, "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida mahalla fuqarolar yig'inlari o'smir yoshlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarning final o'yinlarida hududiy bosqichlarda g'olib bo'lgan jamoalar o'zaro kuch sinashdi.

Musobaqalar ochilishiga bag'ishlangan tantanali tadbirda yurtimizda yosh avlodning har jihatdan yetuk, jismonan sog'lom va barkamol unib-o'sishlari, o'z iqtidor va salohiyatlarini to'laqonli namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotgani, ayniqsa, bolalar futbolini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi.

— "Charm to'p" futbol musobaqalarida viloyatdagi 880 mahalla jamoasi dastlab tuman, shahar bosqichlari o'yinlarida ishtirok etdi, — deydi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Andijon viloyati kengashi raisining yoshlar masalalari bo'yicha



o'rinbosari Dilshodbek Tojiboyev. — Tuman, shahar bosqichida g'olib chiqqan 16 jamoa 4 guruhga bo'linib, hududiy bosqich o'yinlarida o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdi. G'olib bo'lgan jamoalar esa final o'yinlariga yo'llanma oldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, barcha raqiblaridan ustun kelgan Andijon tumanining "Do'stlik" mahallasi jamoasi birinchi o'rinni qo'lga kiritib, musobaqaning Namangan shahrida o'tkaziladigan mintaqaviy bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Ikkinchi o'rin Xo'jaobod tumanining "Bobur" mahallasi, uchinchi o'rin Bulqoboshi tumanining "Yuksalish" mahallasi yosh futbolchilariga nasib etdi.

"Futbolimiz kelajagi" musobaqasi viloyat bosqichi final o'yinlarida Oltinko'l tumanining "Do'stlik", Xonobod shahrining "Anhor", Asaka tumanining "Ergashobod" hamda Izboskan tumanining

"Qo'shko'prik" mahallalari jamoalari o'zaro kuch sinashdi.

Barcha raqiblaridan ustun kelgan Xonobod shahrining "Anhor" mahallasi jamoasi birinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

— Final o'yinlari qiziqarli va muvofiqsiz kurashlar ostida o'tdi, — deydi "Anhor" mahallasi jamoasi a'zosi Rahmonjon Abduraimov. — Har bir uchrashuv mahorat va tajribamizni oshirishga, salomatligimizni mustahkamlashga yordam berdi. Jamoamizning g'olib chiqqani shijoatimizni, o'zimizga bo'lgan ishonchni oshirdi.

Yakunda musobaqalar g'olib va sovrindorlari, turli nominatsiyalar bo'yicha eng yaxshi deb topilgan yosh futbolchilar tashkilotchilar tomonidan munosib rag'batlantirildi.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
O'za muxbiri

Z.UMURZOQOV (O'za) olgan suratlar.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi jurnalistika fakulteti "Jamoadchilik bilan aloqalar nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida dotsent Gulnora Nishonovaga otasi USMON otaning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Kasb-hunar ta'limi markazi jamoasi Buxoro viloyati kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi boshlig'i Hamid Qobilovga akasi Halim QOBILOVning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Jarayon

Mahsulotlar hamyonbop va sifatli bo'lsa

Hademay yangi o'quv yili ham boshlanadi. Ota-onalar allaqachon farzandiga sifatli va arzon o'quv qurollari, kiyim-bosh xarid qilish taraddudiga tushishgan. Har yildagidek yurtimiz bozorlarida, aholi gavjum hududlarda maktab bozorlari va yarmarkalar tashkil etildi. Joriy yilning 10-avgustidan 10-sentabrigacha joylardagi maktab yarmarkalarini mutasaddi tashkilotlar tomonidan uyushqoqlik bilan o'tkazish rejalashtirilgan.

Maktab yarmarkalarida 26 nomdagi o'quv qurollari sotuvga chiqarildi. Jumladan, Yunusobod, Chilonzor, Sergeli, Mirzo Ulug'bek, Yashnobod tumanlaridagi "O'tchopar", "Uchqahramon", "Quyoshli", "Havas" savdo majmualari hamda "Makro" supermarketlarida 26 turdagi o'quv qurollari hamda o'quvchi liboslari o'rta olgan.

— Mahsulotlar orasida sifatli yelim, poyabzal, chizg'ich, rangli qog'oz, sirkul, nota daftarini bir manzildan sotib olish biz uchun qulay, — deydi toshkentlik Sayyora Muqimova. — Buyumlarining sifati, dizayni va xomashyosi ham talabga javob beradi. Ularning narxi ham hamyonbop ekani ko'pchilikni qoniqtiradi. Misol uchun, poytaxtimizdagi supermarketlarda 12 varaqli daftar narxi 390 so'm. Farzandlarim uchun bejirim sport kiyimini ham shu yerdan xarid qildim.

Maktab yarmarkalaridan o'rta olgan mahsulotlar sifati mahalliy hokimliklar tomonidan nazoratga olingan. "Sharq" nashriyotida darsliklarni sifatli chop etishda ham alohida e'tibor va mas'uliyat


bilan yondashiladi. Ayni damda yuqori sinflar uchun darsliklar yaratish ishlari qizg'in davom etayotir. Kitob va qo'l-lanmalardagi matnlar shakl va mazmun jihatdan yuqori saviyaga ega bo'lishi kerak.

Kamola A'lomova, "Sharq ziyokori" MChJ bosh mutaxassisi:

— O'quvchilarning sifatli bilim olishida aynan o'quv qurollari va darsliklarning ko'rinishi va sifati ham ahamiyatga ega. Masalan, kundalik yoki yozuv (mashq) daftarini yuqqa va o'ta jimjimador qilib ishlangan bo'lsa, bu o'quvchini chalg'itishi mumkin. Maktab yarmarkalarida ana shunday kamchiliklardan xoli, milliy qadriyatlarimiz hamda sanitariyagigiyena talablariga to'la javob beradigan bir xil standartdagi, o'zimizda ishlab chiqarilgan daftarlar sotilishi ayni mudao. Bunday daftarlar o'quvchi ko'zini to'liq qo'ldiraydi. Hoshiyalari esa ko'zga tashlanadi, sahifalar yuzasi esa tekis hamda yozishga qulay.

Sh.BOYMURODOVA

V.GRANKIN olgan suratlar.



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150, G-829. Tiraji 11632.
Hajmi 4 bosma tabaq. O'fset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
o'shirlilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Nazokat Xolmetova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — Topshirildi — 00.00

123 56